Centrum

Travel magazine

N°3 | Summer 2024

На обложке: **Piquadro.** Чемодан из коллекции PQ-Light
Azukar Moreno. Платье-халат "Якорь"

Топ-10 летних направлений

Yozgi yo'nalishlarning Top -10 ligi

Azukar Moreno: мода и традиции

Azukar Moreno: moda va an'analar

Утеря паспорта за границей. Что делать?

Chet elda pasportingiz yo'qoldi. Nima qilish kerak?

Тайны и истории Ташкента

Toshkent sirlari va tarixi

РЕКЛАМА

мобильное приложение связи

подключайся онлайн, собирай в свой тариф только нужное
и получай доступ к эксклюзивному контенту

РЕКЛАМА

Toshkent qalbidagi nafosat va hashamat

Hilton Tashkent City mehmonxonasi 258 ta zamonaviy xonani taqdim etadi. Sizning xizmatingizda turli darajadagi tadbirlarni o'tkazish uchun ikkita yirik maydon, hashamatli restoran va barlar mavjud bo'lib, ularda xorijiy va mahalliy oshpazlar tandemi pazandalik san'ati durdonalari bilan sizni hayratda qoldiradi. Shuningdek, dam olib hordiq chiqarishingiz uchun premium toifadagi Serenity Spa fitnes-markazi mavjud.



Hilton
TASHKENT CITY

100027, O'zbekiston, Toshkent, O'qchi ko'chasi, 1
+998 71 210 88 88

reservations@hilton-tashkent.com
hilton.com/tashkentcity

РЕКЛАМА

TENGE BANK

Управляйте вашими средствами в мобильном приложении Tenge24!

- Гибкие депозиты
- Бесплатные переводы на любую карту*
- Мгновенные переводы в Казахстан
- Удобные онлайн микрозаймы
- Доступные переводы на карты Mastercard через систему Moneysend
- Конвертация по пяти валютным парам
- Более 400 000 товаров в Tenge Market

* Лимит бесплатных ежемесячных переводов устанавливается согласно утверждённым тарифам. Подробная информация на сайте www.tengebank.uz

Google Play

App Store

1245

www.tengebank.uz

Лицензия ЦБ РУз на проведение банковских операций №85 от 25 декабря 2021г.

Tenge24

1. Скачайте приложение
2. Пройдите идентификацию
3. Получите весь спектр услуг



Содержание
Mundarija

12 **Топ-10 летних направлений**
Yozgi yo‘nalishlarning Top-10 ligi

44 **Своими глазами: события, достойные внимания**
O‘z ko‘zingiz bilan: e’tiborga loyiq voqealar

50 **Centrum Holidays: вы – в центре отдыха!**
Centrum Holidays: siz – dam olish markazidasiz!

54 **Azukar Moreno: узбекский бренд с испанским акцентом**
Azukar Moreno: ispancha ohangga ega o‘zbek brendi

66 **Лола: «Полет – мой источник вдохновения»**
Lola: «Parvoz – mening ilhom manbaim»

72 **Утеря паспорта за границей. Что делать?**
Chet elda pasportingiz yo‘qoldi. Nima qilish kerak?

78 **Тайны и истории города: о чем нам говорит Ташкент?**
Shahar sirlari va tarixi: «Toshkentdan gapiramiz» nima haqida?

CENTRUMAIR

140 000

Keling va 140 000 bonus oling!

Приди и получи 140 000 бонусов!

РЕКЛАМА

Tashkent City Mall, 1 этаж

LETOILE

*Do‘konda ushbu sahifaning fotosuratini ko‘rsating, sodiqlik dasturida ro‘yxatdan o‘ting va 140 000 bonusga ega bo‘ling (tashrif uchun 100 000 va birinchi ro‘yxatdan o‘tish uchun 40 000). Bonuslarni butun aksiya muddati davomida faqat bir marta olish mumkin. Bonuslar hisoblangandan keyin 30 kun davomida amal qiladi. *Покажи в магазине фото этой страницы, зарегистрируйся в программе лояльности и получи 140 000 бонусов (100 000 за посещение и 40 000 за первую регистрацию). Бонусы можно получить только один раз за весь период акции. Срок действия бонусов — 30 дней после начисления.

CENTRUMAIR

Centrum
Travel magazine

Директор по маркетингу
Андрей Осинцев

Бренд-менеджер
Софья Завершинская

Главный редактор:
Елизавета Алмазова

Авторы:
Марина Гулящева
Анастасия Черепанова
Ислам Рахманов

Перевод, узбекский язык:
Камол Назаров

Редактор и корректор, узбекский язык:
Нилуфар Мавланова

Редактор и корректор, русский язык:
Марина Исайчева

Дизайн и верстка:
Эмиль Зубаиров
Афзал Хамидов

Фотографы:
Лера Равлик (Грузия)
Камилла Исмакова
Нафиса Парпиева
Алмаз Алеев
Ином Исмаилов
Фазлиддин Анваров
Умид Якубов

Адрес редакции:
г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Ойбека, 36.

Отдел рекламы
Телефон: +998 91 030 82 21

Marketing bo'yicha direktor:
Andrey Osintsev

Brend-menejeri:
Sofiya Zavershinskaya

Bosh muharrir:
Yelizaveta Almazova

Mualliflar:
Marina Gulyashcheva
Anastasiya Cherepanova
Islam Rahmanov

Tarjima, o'zbek tili:
Kamol Nazarov

Muharrir va musahhih, o'zbek tili:
Nilufar Mavlanova

Muharrir va musahhih, rus tili:
Marina Isaycheva

Dizayn va sahifalash:
Emil Zubairov
Afzal Xamidov

Fotosuratchilar:
Lera Ravlik (Gruziya)
Kamilla Ismakova
Nafisa Parpieva
Almaz Aleyev
Inom Ismoilov
Fazliddin Anvarov
Umid Yoqubov

Tahririyatning yuridik manzili:
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'ch., 36.

Reklama bo'limi
Telefon: +998 91 030 82 21

Лицензия № С-5669588. 03.07.2024

Распространяется бесплатно.

Редакция не несет ответственности за содержание рекламных материалов.

Использование материалов или их фрагментов в любой форме допускается исключительно с письменного разрешения редакции.

Отпечатано в типографии ООО ООО "PRINTUZ": г. Ташкент, Мирабадский р-н., ул. Кушкуприк, д. 28/1.
Формат 210×297 мм. Печать офсетная.
Тираж 3 000 экземпляров.
Подписано в печать 00.00.2024. Заказ № .

Litsenziya № C-5669588. 03.07.2024

Bepul tarqatiladi.

Tahririyat reklama materiallarining mazmuni uchun javobgar emas.

Materiallar yoki ularning qismlaridan har qanday shaklda foydalanishga faqat tahririyatning yozma ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

"PRINTUZ" MCHJ bosmaxonasida chop etilgan: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Qo'shko'prik ko'chasi, 28/1-uy.

Qog'oz bichimi 210×297 mm, ofset qog'ozi. Adadi 3 000 nusxa. 00.00.2024-yilda chop etildi. Buyurtma № .

РЕКЛАМА

Уважаемые пассажиры, добро пожаловать на борт семьи Centrum!

Hurmatli yo‘lovchilar, Centrum oilasi bortiga xush kelibsiz!

Как говорил Габриэль Гарсиа Маркес: «Возможно, в этом мире ты всего лишь человек, но для кого-то ты – весь мир». Так говорим и мы, ведь Centrum – это вы. Вы – наш источник вдохновения, мотивирующий улучшать сервис, разрабатывать новые маршруты и дарить положительные эмоции.

Время идет вперед, мир меняется, и вместе с ним меняемся мы. Centrum Holding поставил перед собой глобальную цель – создать национальную туристическую экосистему брендов, которая позволит каждому узбекистанцу путешествовать чаще, и мы её успешно выполняем: авиакомпания Centrum Air расширяет свой флот двумя новыми самолётами Airbus A321neo, ещё более экологичными и безопасными. География полётов пополняется новыми странами и городами, позволяя индивидуальным путешественникам добраться с комфортом до страны мечты. Развивая нового туроператора Centrum Holidays и расширив маршрутную сеть, мы предлагаем туристам пакетные туры в ОАЭ, Саудовскую Аравию, Грузию, Египет, Турцию, Кыргызстан, Малайзию, Сингапур, Японию, а к новому году список пополнят Таиланд, Вьетнам и Китай. В то же время грузовая авиакомпания My Freighter трансформируется в крупнейшего логиста Узбекистана, выполняющего 3PL-логистику и решающего важнейшие задачи для бизнеса, перевозя грузы по всему миру.

Путешествуйте с нами, открывайте новые горизонты.

Вы – в центре Вселенной.
Вы – в центре Centrum!

С уважением,
генеральный директор Centrum Holding
Абдулазиз Абдурахманов

Gabriel Garsiya Markes aytganidek: «Ehtimol, bu olamda sen bor-yo‘g‘i bir insondirsan, ammo kimdir uchun sen butun olamsan». Biz ham shunday deymiz, chunki Centrum bu — siz. Siz bizning ilhom manbaimiz bo’lib, bizni xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga, yangi yo‘nalishlarni yaratishga va ijobiy his-tuyg‘ularni taqdim etishga undaysiz.

Zamon oldinga intilmoqda, dunyo o‘zgarmoqda - biz ham o‘zgaryapmiz. Centrum Holding o‘z oldiga global maqsadni - har bir o‘zbekistonlikka ko‘proq sayohat qilish imkonini beradigan brendlarning milliy turizm ekotizimini yaratishni maqsad qilgan. Biz bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdamiz: Centrum Air o‘z flotini yanada ekologik toza va xavfsiz bo‘lgan ikkita yangi Airbus A321neo samolyoti bilan kengaytirmoqda. Parvozlar geografiyasi yangi mamlakat hamda shaharlar hisobiga to’ldirilmoqda, bu individual sayohatchilarga orzularidagi o’lkalarga qulaylik bilan yetib borish imkonini beradi. Yangi Centrum Holidays turoperatorini rivojlantirish va yo‘nalishlar tarmog‘ini kengaytirish orqali sayyohlarga BAA, Saudiya Arabistoni, Gruziya, Misr, Turkiya, Qirg‘iziston, Malayziya, Singapur, Yaponiyaga sayohat paketlarini taklif etamiz, yangi yilga kelib esa ro‘yxatni Tailand, Vyetnam va Xitoy to‘ldiradi. Ayni paytda, My Freighter yuk tashish aviakompaniyasi 3PL logistikasini amalga oshiradigan va yuklarni butun dunyo bo‘ylab tashish orqali biznes uchun eng muhim vazifalarni hal qiladigan O‘zbekistonning eng yirik logistik kompaniyasiga aylanmoqda.

Biz bilan sayohat qiling, yangi ufqlarni kashf eting.

Siz — Koinot markazidasiz.
Siz — Centrum markazidasiz!

Hurmat bilan,
Centrum Holding bosh direktori
Abdulaziz Abdurahmonov

TOP-10

летних направлений

yozgi yo'nalishlar

1 | Ларнака
Larnaka

Расположенная на юго-востоке Кипра Ларнака – это место, где каждый найдет что-то для себя. Будь то увлечение историей, любовь к природе, страсть к гастрономическим открытиям или желание насладиться солнцем и морем – Ларнака всегда готова предложить своим гостям незабываемые впечатления. Приезжайте сюда, чтобы вдыхать свежий морской бриз, исследовать древние руины, потягивать коктейли в уютных барах, лакомиться свежими фруктами и морепродуктами, и ощутите пульс жизни, который бьется здесь уже тысячи лет.

Larnaka — Kiprning janubi-sharqida joylashgan bo'lib, bu manzilda har kim o'zi uchun nimadir topadi. Xoh tarixga qiziqish, xoh tabiatga muhabbat, xoh gastronomik kashfiyotlarga bo'lgan ishtiyoq yoki quyosh va dengizdan bahra olish istagi bo'lsin — Larnaka doimo o'z mehmonlariga unutilmas taassurotlarni taklif etishga tayyor. Dengizning salqin shabadasidan nafas olish, qadimgi xarobalarni o'rganish, shinam barlarda kokteyl ichib, lazzat olish, yangi meva va dengiz mahsulotlaridan huzur qilish va ming yillardan beri davom etayotgan hayot sur'atini his etish uchun bu yerga keling.

Обязательно попробуйте:

- Мезе (мезедес)[1] – набор из нескольких закусок и блюд
- Сувлаки – шашлыки из свинины или курицы, подаваемые с питой и овощами
- Халлуми – жареный сыр
- Стифадо – рагу из говядины с луком, вином и специями
- Лукумадес – традиционные пончики с медом и корицей
- Тахини – пасту из кунжутных семян
- Тавас – запечённое мясо ягнёнка с картофелем и овощами
- Клефтико[2] – баранину, приготовленную в особой печи

Albatta tatib ko'ring:

- Meze (mezedes)[1] — bir nechta gazaklar va taomlar to'plami
- Suvlaki — dasturxonga pita va sabzavotlar bilan tortiladigan cho'chqa yoki tovuq go'shtidan kabob
- Hallumi — qovurilgan pishloq
- Stifado —piyozli mol go'shti, sharob va ziravorlardan tayyorlanadigan ragu
- Lukumades — asal va dolchinli an'anaviy ponchiklar
- Taxini — kunjut urug'idan tayyorlanadigan pasta
- Tavas — kartoshka va sabzavotlar bilan toblab pishirilgan qo'zi go'shti
- Kleftiko[2] — maxsus pechda pishirilgan qo'y go'shti

- Посетите церковь Святого Лазаря[3] – постройку IX века с великолепной архитектурой
- Помедитируйте, гуляя по живописному берегу Соленого озера
- Исследуйте замок Ларнаки, который использовался в разные эпохи в качестве крепости и тюрьмы
- Полюбуйтесь старинным акведуком Камарес, построенным в XVIII веке
- Насладитесь отдыхом на одном из самых популярных пляжей Ларнаки – Финикудес[4]
- Откройте для себя руины древнего города-государства, отправившись в археологический парк Китион
- Прогуляйтесь по оживленной площади Европы с историческими зданиями и музеями

- IX asrda qurilgan ajoyib me'morchilik namunasi — Avliyo Lazar cherkoviga[3] tashrif buyuring
- Sho'r ko'lning xushmanzara sohilida sayr va meditatsiya qiling
- Turli davrlarda qal'a va qamoqxona sifatida foydalanilgan Larnaka qal'asini o'rganing
- XVIII asrda qurilgan qadimiy Kamares akvedukini (osma suv quvurini) tomosha qiling
- Larnakaning eng mashhur plyajlaridan biri — Finikudesda[4] dam oling
- Kition arxeologik bog'iga tashrif buyurib, qadimiy shahar-davlat xarobalarini kashf eting
- Tarixiy bino va muzeylarga ega gavjum Yevropa maydonida sayr qiling



Запечатлите:

- Руины древнего города Китион
- Акведук Камарес[5]
- Квартал Лаики Гетония[6]
- Памятник философу Зенону Китионскому
- Затонувший паром Зенобия (для экстремалов)
- Памятник «Лев с крыльями»

Suratga oling:

- Qadimgi Kitiy shahri xarobalari
- Kamares akveduki[5]
- Laiki Getiniya dahasi[6]
- Faylasuf Kitiylik Zenon haykali
- Cho'kib ketgan Zenobiya paromi (ekstremallar uchun)
- «Qanotli sher» haykali

Не забудьте забрать с собой:

- Лукумадес[7], халву и другие традиционные сладости
- Знаменитый сыр халлуми
- Ароматное кипрское оливковое масло[8]
- Керамические изделия – от разноцветных колокольчиков до посуды в византийском стиле
- Лефкаритику – кружево ручной работы

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Lukumades[7], holva va boshqa an'anaviy shirinliklar
- Mashhur xallumi pishlog'i
- Kiprning xushbo'y zaytun moyi[8]
- Rang-barang qo'ng'iroqchalardan tortib Vizantiya uslubidagi idishlargacha bo'lgan keramika buyumlari
- Lefkaritiku — qo'lda to'qilgan to'r

2 | Стамбул
Istanbul



В колоритном Стамбуле переплетаются истории четырёх великих империй: каждый уголок города дышит богатой многовековой культурой. Но Стамбул – современный, динамичный город, где проходят крупные выставки и фестивали, привлекающие гостей со всего мира. Изучая потрясающую архитектуру и наслаждаясь чудной природой, вы также сможете попробовать изысканные турецкие блюда, которые по достоинству оценит даже самый искушенный гурман.

Jilvali Istanbulda to'rt buyuk imperiyaning tarixi bir-biriga chatishib ketgan: shaharning har bir burchagi ko'p asrlik boy madaniyatdan nafas oladi. Ammo Istanbul – nafaqat o'tmish, balki butun dunyodan mehmonlarni o'ziga jalb qiladigan yirik ko'rgazma va festivallarga mezbonlik qiluvchi zamonaviy, dinamik shahar. Siz hayratga soluvchi arxitekturasini o'rganish, go'zal tabiatidan zavqlanish bilan bir qatorda, hatto eng nozik didli shinavanda ham yuqori baholaydigan ajoyib turk taomlarini tatib ko'rishingiz mumkin.

- Посетите знаменитую святыню Айя-София[1], которая была и церковью, и мечетью, а теперь является музеем
- Полюбуйтесь великолепной архитектурой Голубой мечети
- Исследуйте Топкапы – дворец султанов Османской империи с его богатой историей и сокровищами
- Восхититесь роскошью дворца Долмабахче на берегу Босфора
- Заблудитесь в лабиринтах Гранд-базара[2] – одного из крупнейших рынков в мире
- Узнайте, как был устроен подземный резервуар воды времен Византии – посетите Цистерну Базилика[3]
- Поднимитесь на Галатскую башню, чтобы у вас захватило дух от панорамного вида на город

- Ham cherkov, ham masjid bo'lgan va hozirgi paytda muzeyga aylangan mashhur Sofiya[1] ziyoratgohiga tashrif buyuring
- Moviy masjidning qoyilmaqom me'morchiligidan zavq oling
- Boy tarix va xazinalarga ega bo'lgan Usmonli imperiyasi sultonlarining Topkapi saroyi bilan tanishing
- Bosfor sohilidagi Dolmabaxche saroyining hashamatidan zavq oling
- Dunyodagi eng yirik bozorlardan biri bo'lgan Grand-bozor[2] labirintlarida adashib qoling
- Vizantiya davridagi yer osti suv ombori qanday tuzilganini bilish uchun Bazilika sardobasiga[3] tashrif buyuring
- Shaharning panoramali manzarasini ko'rib, entikish uchun Galata minorasiga chiqing



Обязательно попробуйте:

- Разнообразные виды кебабов[4], включая донер-кебаб и шиш-кебаб
- Менемен – традиционный турецкий завтрак из яиц с помидорами, перцем и специями
- Гёзлеме – лепешки с начинками
- Кадаиф – десерт из тонких нитей теста
- Ревани – пирог из манной крупы
- Лахмаджун[5] – турецкую пиццу с мясом и специями
- Баклаву – сладкое удовольствие из слоеного теста, орехов и сиропа

Albatta tatib ko'ring:

- Turli xil kaboblar[4], shu jumladan, doner-kabob va shish-kabob
- Menemen — tuxum, pomidor, qalampir va ziravorlardan tayyorlanadigan an'anaviy turk nonushtasi
- Gozleme — nachinkali kulchalar
- Kadaif — ingichka xamirli iplardan tayyorlanadigan shirinlik
- Revani — bug'doy yormasidan tayyorlanadigan pirog
- Laxmajun[5] — go'sht va ziravorli turkcha pitsa
- Baklava — qatlama xamir, yong'oq va qiyomdan tayyorlanadigan shirinlik

Запечатлите:

- Панорамный вид на город и Босфор, открывающийся с Галатской башни[6]
- Стамбульские ретротрамваи[7]
- Старинные улочки и дома района Султанахмет
- Цветочный пассаж[8] – живописное место для фотографирования в районе Бейоглу

Suratga oling:

- Galata minorasidan[6] shahar va Bosforning panorama ko'rinishi
- Istanbulning retro tramvaylari[7]
- Sultonahmet hududidagi qadimiy ko'cha va uylar
- Gul passaji[8] — suratga olish uchun Beyog'lu hududidagi xushmanzara joy

Не забудьте забрать с собой:

- Баклаву, лукум и другие восточные сладости[9]
- Турецкие чай и кофе
- Традиционные шелковые платки с красивыми узорами[10]
- Красочные изделия ручной работы из керамики[11]
- Ароматные специи с Египетского базара (Мысыр-Чаршисы).

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Baklava, lokum va boshqa sharqona shirinliklar[9]
- Turk choyi va qahvasi
- Chiroyli naqshli an'anaviy ipak sharflar[10]
- Rangli keramikadan qo'lda yasalgan buyumlar[11]
- Misr bozoridagi xushbo'y ziravorlar (Misir-Charshisi).

3 | Дананг
Danang



Дананг — крупный вьетнамский мегаполис с населением в 900 тысяч человек, однако на побережье не ощущается суета большого города: наоборот, туристам здесь предлагаются уникальные условия для комфортного и безмятежного отдыха. К вашим услугам – современная инфраструктура, рыбные рестораны, свежие фрукты, солнце, теплое море и роскошные пляжи с мягким белым песком, которые невероятно красивы и пока еще немноголюдны.

Danang — Vyetnamning 900 ming aholi yashaydigan yirik megapolisi. Sohilda katta shaharning behalovatligi sezilmaydi: aksincha, bu yerda qulay va xotirjam dam olish uchun sayyohlarga noyob sharoitlar taklif etiladi. Zamonaviy infratuzilma, baliq restoranlari, yangi mevalar, quyosh, iliq dengiz, hali gavjum bo'lmagan va nihoyatda chiroyli, yumshoq oq qumli hashamatli plyajlar xizmatingizga shay.

1

- Посетите Мраморные горы[1] – природное чудо, состоящее из пяти мраморных и известняковых холмов с пещерами, пагодами и захватывающими видами
- Расслабьтесь на пляже Май Кхе – одном из самых известных и красивых пляжей в стране
- Полюбуйтесь мостом Дракона, особенно во время ночного шоу по выходным
- Посетите горный курорт Бана Хиллс – там есть французская деревня, канатная дорога и Золотой мост
- Узнайте об истории и культуре чам с помощью древних артефактов в Музее скульптур Чам
- Отправьтесь в одну из крупнейших пагод в Данангe с гигантской статуей Будды – пагоду Линь Унг

- G'or, pagoda va ajoyib manzaralarga ega beshta marmar hamda ohaktosh tepaliklaridan iborat tabiiy mo'jiza — Marmar tog'larga[1] tashrif buyuring
- Mamlakatning eng mashhur va chiroyli plyajlaridan biri — May Kxeda orom oling
- Ajdaho ko'prigini, ayniqsa, dam olish kunlari o'tkaziladigan tungi shou paytida tomosha qiling
- Fransuz qishlog'i, osma yo'l va Oltin ko'prigi bo'lgan - Bana Hills tog' kurortiga tashrif buyuring
- Cham haykaltaroshlik muzeyidagi qadimiy asarlar orqali cham tarixi va madaniyatini o'rganing
- Buddaning ulkan haykali qo'yilgan Danangdagi eng katta pagodalardan biri — Lin Ung pagodasiga yo'l oling


2

Обязательно попробуйте:

- Ми куанг[2] – блюдо из рисовой лапши с курицей, креветками, зеленью и арахисом
- Као лау – густую лапшу с хрустящими жареными кусочками мяса, травами и бульоном
- Баньсео – хрустящие рисовые блины с креветками, свининой и ростками фасоли
- Нем луи – шашлыки, подаваемые с рисовой бумагой, овощами и соусом
- Фо – традиционный вьетнамский суп с лапшой и говядиной или курицей

Albatta tatib ko'ring:

- Mi kuang[2] — tovuq, qisqichbaqa, ko'katlar va yeryong'oqli guruch ugrasi
- Kao lau — qovurilgan go'sht bo'laklari, ko'katlar va sho'rvali quyuq ugra
- Banseo — qisqichbaqa, cho'chqa go'shti va loviya nihollari bilan tayyorlangan qarsildoq guruch quymoq
- Nem lui — dasturxonga guruch qog'ozi, sabzavotlar va sous bilan tortiladigan kabob
- Fo — mol yoki tovuq go'shtli an'anaviy Vyetnam ugrasi

3

Запечатлите:

- Мост Дракона[3], особенно во время огненного шоу
- Золотой мост[4], поддерживаемый гигантскими руками, в Бана Хиллс
- Живописные виды и пещеры Мраморных гор
- Белоснежный песок и голубую воду пляжей Дананга
- 67-метровую статую Будды в пагоде Линь Унг
- Старый город Хойан

Suratga oling:

- Ajdaho ko‘prigini[3], ayniqsa, olovli shou paytida
- Bana Hills’dagi ulkan qo‘llar ushlab turgan Oltin ko‘prik[4]
- Marmar tog‘larining go‘zal manzara va g‘orlari
- Danang plyajlarining qordek oppoq qumi va moviy suvi
- Lin Ung pagodasidagi 67 metrli Budda haykali
- Qo‘hna Xoyan shahri



4

5

6

Не забудьте забрать с собой:

- Вьетнамский кофе
- Традиционную шляпу нон[5]
- Красивые шелковые шарфы, одежду и аксессуары
- Сувениры ручной работы[6] – фигурки из дерева и керамики
- Украшения из жемчуга, раковин и кораллов, дерева и ткани

O‘zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Vyetnam qahvasi
- An’anaviy non shlyapasi[5]
- Chiroyli ipak sharflar, kiyim-kechak va aksessuarlar
- Qo‘lda yasalgan suvenirlar[6] — yog‘och va keramika haykalchalar
- Marvarid, chig‘anoq va marjon, yog‘och va matodan yasalgan bezaklar

4 | Мале
Male

Мале — оазис тепла и умиротворения в сердце Индийского океана. Этот небольшой и красивый остров является столицей Мальдивской Республики и притягивает путешественников своей неповторимой красотой и спокойствием. Здесь вы сможете окунуться в мир бескрайних лагун, белоснежных песчаных пляжей и кристально чистых вод, которые словно приглашают наслаждаться ласковым солнцем и нежным прибоем. Акватория вокруг Мале – настоящий рай для любителей подводного мира: яркие коралловые рифы и разнообразные морские обитатели поразят вас своей красотой.

Male — hind okeani yuragidagi iliqlik va osoyishtalik vohasi. Bu kichik va chiroyli orol Maldiv Respublikasining poytaxti bo‘lib, o‘zining betakror go‘zalligi va osoyishtaligi bilan sayohatchilarni o‘ziga jalb qiladi. Bu yerda go‘yo quyoshning yoqimli tafti va mayin to‘lqinlardan bahra olishga taklif qilayotgan bepoyon ko‘rfaz, qordek oppoq qumli plyajlar va tip-tiniq suv olamiga g‘arq bo‘lishingiz mumkin. Male atrofidagi akvatoriya - suv osti dunyosi ishqibozlari uchun haqiqiy jannat: yorqin marjon riflari va dengiz jonzotlarining xilma-xilligi o‘z go‘zalligi bilan sizni hayratda qoldiradi.

- Посетите самую старую мечеть Мальдив с уникальной архитектурой и резьбой по коралловому камню – мечеть Великой Пятницы[1]
- Узнайте больше об истории и культуре Мальдив, осмотрев коллекции древних артефактов в национальном музее
- Насладитесь прогулкой в парке Султана – зелёном оазисе в центре города
- Посмотрите, как местные рыбаки привозят свежий улов, и приобретите свежие морепродукты на рыбном рынке
- Расслабьтесь на пляжах с белым песком и насладитесь теплыми водами Индийского океана

- Maldivning noyob arxitekturasi va marjon toshiga solingan o'yma naqshi bilan mashhur eng qadimgi Buyuk Juma masjidiga[1] tashrif buyuring
- Milliy muzeydagi qadimiy artefaktlar kolleksiyasi bilan tanishib, Maldiv orollari tarixi va madaniyati haqida ko'proq bilib oling
- Shahar markazidagi yam-yashil voha — Sulton bog'ida sayr qiling
- Mahalliy baliqchilar yangi ovni olib kelishini tomosha qiling, baliq bozorida yangi dengiz mahsulotlarini xarid qiling
- Oppoq qumli plyajlarda dam oling va Hind okeanining iliq suvlaridan bahra oling

Обязательно попробуйте:

- Мальдивский карри[2] – традиционное рыбное карри с кокосовым молоком и специями
- Гарудию[3] – рыбный суп, подаваемый с рисом, лимоном и чили
- Фихуну мас – жареную рыбу, маринованную в специях и лимонном соке
- Роши – мальдивский плоский хлеб, часто подаваемый с карри
- Бонди – сладкий десерт из кокоса, сахара и розовой воды

Albatta tatib ko'ring:

- Maldiv karrisi[2] — kokos suti va ziravorli an'anaviy baliq karrisi
- Garudiya[3] — dasturxonga guruch, limon va chili bilan birga tortiladigan baliq sho'rvasi
- Fihuna mas — ziravorlar va limon sharbatida marinadlangan qovurilgan baliq
- Roshi — ko'pincha karri bilan tortiladigan Maldiv yassi noni
- Bondi — kokos, shakar va atirgul suvidan tayyorlangan shirin desert

Запечатлите:

- Уникальную архитектуру и резьбу по коралловому камню мечети Великой Пятницы
- Очаровательные сады парка Султана[4]
- Моменты местной жизни и свежий улов на Рыбном рынке
- Кристально чистую воду и белый песок пляжей Мале[5]
- Завораживающие виды на город

Suratga oling:

- Buyuk Juma masjidining noyob arxitekturasi va marjon toshiga solingan o'yma naqsh
- Sulton parkining maftunkor bog'lari[4]
- Mahalliy hayot lahzalari va baliq bozoriga yangi keltirilgan dengiz mahsulotlari
- Tip-tiniq suv va Male plyajlarining qordek oppoq qumi[5]
- Shaharning maftunkor manzaralari

Не забудьте забрать с собой:

- Деревянные резные фигурки и изделия из кокоса[6]
- Специи для домашних кулинарных экспериментов
- Ювелирные изделия, изготовленные из местных кораллов[7]
- Экзотический чай с мальдивских плантаций
- Миниатюрные модели традиционных мальдивских лодок

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Yog'och va kokosdan o'yib ishlangan haykalcha hamda buyumlar[6]
- Uyda pazandalik tajribalarini o'tkazish uchun ziravorlar
- Mahalliy marjonlardan yasalgan zargarlik buyumlari[7]
- Maldiv plantatsiyalarida yetishtirilgan ekzotik choy
- An'anaviy Maldiv qayiqlarining miniatyuradagi modellari

5 | Баку
Boku



Баку – столица Азербайджана, где сливаются восточные традиции и современность. Здесь вы сможете исследовать старый город с его узкими улочками и историческими зданиями, насладиться прогулкой по берегу Каспийского моря и попробовать богатство местной кухни. Город также известен своей современной архитектурой, включая огненную башню Атешгях и комплекс Гянджлик. В Баку есть много интересного для исследования, будь то история, культура или гастрономия.

Boku — Ozarbayjonning poytaxti, sharq an'analari va zamonaviylik birlashib ketgan shahar. Bu yerda tor ko'chalar va tarixiy binolarga ega eski shaharni o'rganishingiz, Kaspiy dengizi sohili bo'ylab sayr qilishingiz va xilma-xil mahalliy taomlarni tatib ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, shahar Ateshgah alanga minorasi va Ganjlik majmuasini o'z ichiga olgan zamonaviy me'morchiligi bilan ham mashhur. Bokuda tarix, madaniyat yoki gastronomiya kabi kashf qilish uchun juda ko'p qiziqarli mavzular mavjud.

1

2

3

- Исследуйте окруженный стенами Старый город[1], объект Всемирного наследия ЮНЕСКО
- Поднимитесь на самый верх Девичьей башни[2], чтобы увидеть панорамные виды города
- Посетите Пламенные башни – трио знаковых небоскребов – и посмотрите впечатляющее световое шоу ночью
- Прогуляйтесь вдоль Каспийского моря по Бакинскому бульвару и насладитесь живописной набережной
- Полюбуйтесь удивительной архитектурой Центра Гейдара Алиева[3], спроектированного Захой Хадид
- Узнайте о богатых традициях азербайджанского ковроткачества в Музее ковра

- YUNESKO Umumjahon merosi obyekti bo'lgan, devor bilan o'ralgan eski shaharni[1] o'rganing
- Shaharning panoramali manzaralaridan bahramand bo'lish uchun Qiz minorasining[2] eng yuqorisiga chiqing
- Ramziy osmono'par binolar uchligi — Olov minoralarga tashrif buyuring va betakror taassurot tuhfa etuvchi tungi yorug'lik shousini tomosha qiling
- Kaspiy dengizi sohilidagi Boku hiyoboni bo'ylab sayr qiling va go'zal manzaralardan bahra oling
- Zaxa Hadid tomonidan loyihalashtirilgan Haydar Aliyev markazining[3] ajoyib arxitekturasini tomosha qiling
- Gilam muzeyida Ozarbayjon gilam to'qish san'atining boy an'analari bilan tanishing

Обязательно попробуйте:

- Азербайджанский вариант плова[4] – блюдо из риса с мясом, сухофруктами и шафраном
- Долму[5] – листья винограда, фаршированные рисом, мясом и зеленью
- Кебабы – различные виды шашлыков, подаваемые со свежими овощами и хлебом
- Кутаб – пирожки с разными начинками, такими как мясо, сыр или зелень
- Шекербуру – сладкую выпечку с ореховой начинкой

Albatta tatib ko'ring:

- Palovning ozarbayjoncha varianti[4] — go'sht, quritilgan meva va za'farondan iborat guruchli taom
- Dolma[5] — guruch, go'sht va ko'katlar o'ralgan tok bargi
- Kaboblar — dasturxonga yangi sabzavotlar va non bilan birga tortiladigan har xil kabob turlari
- Kutab — ichi go'sht, pishloq yoki ko'katlar kabi masalliqlar bilan to'ldirilgan yarim oy shaklidagi yupqa pishiriq
- Shekerbura — ichi yong'oq bilan to'ldirilgan shirinlik

4

5

Запечатлите:

- Уникальную цилиндрическую форму Девичьей башни
- Завораживающее световое шоу, освещающее Пламенные башни[6]
- Узкие улочки Старого города, его древнюю архитектуру и городские стены
- Каспийское море и городской пейзаж[7], открывающийся на Бакинском бульваре
- Музей ковра в Баку[8]

Suratga oling:

- Qiz minorasining Noyob silindrsimon shakli
- Olov minoralarni[6] yorituvchi ajoyib yorug'lik shousi
- Eski shaharning tor ko'chalari, qadimiy me'morchiligi va shahar devorlari
- Boku xiyobonidan namoyon bo'ladigan Kaspiy dengizi va shahar manzarasi[7]
- Bokudagi gilam muzeyi[8]

Не забудьте забрать с собой:

- Традиционные азербайджанские чайные наборы[9]
- Изделия ручной работы и украшения с национальными азербайджанскими мотивами
- Варенья, соки и соусы из граната[10]

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- An'anaviy Ozarbayjon choyi to'plamlari[9]
- An'anaviy Ozarbayjon naqshlari tushirilgan, qo'lda ishlangan buyum va taqinchoqlar
- Anordan tayyorlangan murabbo, sharbat va souslar[10]

6 | Лангкави
Langkavi

Лангкави – это тропический рай на Малайзийском полуострове, где вас ждут живописные пляжи, густые джунгли и мирная атмосфера. Вы можете отдохнуть на белоснежных песчаных пляжах, исследовать водопады и канатные дороги, попробовать местные деликатесы на уличных рынках и в рыбных ресторанах. Лангкави предлагает разнообразные развлечения для всех – от релаксации на природе до активного отдыха на воде и экскурсий по острову.

angkavi — Malayziya yarim orolidagi tropik jannat, u yerda sizni xushmanzara plyajlar, zich joylashgan jungli va osoyishta muhit kutadi. Qordek oppoq qumli plyajlarda dam olishingiz, sharshara va osma yo'llarni o'rganishingiz, ko'cha bozorlari va baliq restoranlarida mahalliy taomlarni tatib ko'rishingiz mumkin. Langkavi har bir kishi uchun tabiat qo'ynida hordiq chiqarishdan tortib, suvda faol dam olish va orol bo'ylab ekskursiyagacha bo'lgan turli xil tadbirlarni taklif etadi.

- Прогуляйтесь по знаменитому подвесному Небесному мосту[1], наслаждаясь видами на джунгли и океан
- Поднимитесь на вершину горы Мат Чинчанг на канатной дороге[2] и полюбуйтесь живописными просторами
- Отдохните на самом популярном пляже Лангкави – Ченанг[3]
- Посетите морской парк, известный специальными местами для снорклинга и дайвинга
- Понаблюдайте за сотнями крокодилов в естественной среде обитания на крокодиловой ферме
- Исследуйте мангровые леса и известняковые образования в ходе лодочной экскурсии
- Оцените разнообразие местной фауны, включая экзотических птиц и животных, в Парке птиц и Парке дикой природы Лангкави

- Mashhur Osmon osma ko‘prigi[1] bo‘ylab sayr qilib, jungli va okean manzaralaridan bahramand bo‘ling
- Osma yo‘l bilan Mat Chinchang tog‘i cho‘qqisiga[2] chiqing va go‘zal manzaradan bahra oling
- Langkavining eng mashhur plyaji[3] – Chenangda dam oling
- Snorkling va dayving uchun maxsus joylari bilan mashhur dengiz parkiga tashrif buyuring
- Yuzlab timsohlarni fermadagi tabiiy yashash muhitida tomosha qiling
- Qayiqdagi safar chog‘ida mangra o‘rmonlari va shakllangan ohaktoshlarni o‘rganing
- Langkavi Qushlar bog‘i va Yovvoyi tabiat bog‘idagi ekzotik qush va hayvonlarni ham o‘z ichiga olgan mahalliy fauna xilma-xilligiga baho bering

Обязательно попробуйте:

- Наси лемак[4] – малайзийское блюдо с кокосовым рисом, анчоусами, орехами и самбалом
- Ренданг – медленно тушеное мясо в пряном кокосовом соусе
- Сатэй[5] – маринованное мясо на шпажках, подаваемое с арахисовым соусом
- Чар квэй тео – обжаренные плоские рисовые лапши с креветками, яйцом и ростками фасоли
- Роти канай – тонкий хрустящий хлеб, подаваемый с карри
- Айс качанг – десерт из колотого льда с разноцветными сиропами, фасолью, кукурузой и желе

Albatta tatib ko‘ring:

- Nasi lemak[4] — kokos guruchi, anchous, yong‘oq va samballi Malayziya taomi
- Rendang — xushbo‘y kokos sousida uzoq dimlangan go‘sht
- Satey[5] — dasturxonga yeryong‘oq sousi bilan tortiladigan sixdagi marinadlangan go‘sht
- Char kvey teo — qisqichbaqa, tuxum va loviya nihollari bilan qovurilgan guruchli yupqa ugra
- Roti kanay — dasturxonga karri bilan tortiladigan yupqa qarsildoq non
- Ays kachang — rangli sirop, loviya, makkajo‘xori va jele qo‘shilgan maydalangan muzli shirinlik



Запечатлите:

- Потрясающие виды, открывающиеся с Небесного моста
- Обзор с вершины горы Мат Чинчанг, поднимаясь на канатной дороге
- Красивейшие закаты и пляжные пейзажи[6]
- Подводный мир во время снорклинга или дайвинга
- Мангровые леса и известняковые скалы
- Экзотических животных в их среде обитания[7]

Suratga oling:

- Osmon ko‘prigidan namoyon bo‘ladigan ajoyib manzaralar
- Osma yo‘ldan ko‘tarilganda Mat Chinchang tog‘i cho‘qqisidan namoyon bo‘ladigan manzara
- Quyosh botishi va plyajning ajoyib manzaralari[6]
- Snorkling yoki dayving paytidagi suv osti dunyosi
- Mangra o‘rmonlari va ohaktosh qoyalari
- Tabiiy yashash muhitidagi ekzotik hayvonlar[7]

Не забудьте забрать с собой:

- Малайзийские батик и текстиль[8]
- Наборы специй и соусов
- Натуральное кокосовое масло и косметику из него
- Сувениры из дерева ручной работы
- Разнообразные сорта местного шоколада
- Украшения и сувениры из местного жемчуга[9]
- Ароматный чай и кофе с местных плантаций

O‘zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Malayziya batigi va matolari[8]
- Ziravorlar va souslar to‘plamlari
- Tabiiy kokos moyi va undan tayyorlangan kosmetika
- Qo‘lda yasalgan yog‘och suvenirlar
- Mahalliy shokoladning har xil turlari
- Mahalliy marvariddan yasalgan taqinchoqlar va suvenirlar[9]
- Mahalliy plantatsiyalarda yetishtirilgan xushbo‘y choy va qahva.

7 | Токио
Tokio

Токио – это мегаполис, где современные технологиипереплетаются с традиционной культурой. На его пульсирующих жизнью улицах вы обнаружите современные небоскребы, традиционные храмы и множество впечатляющих достопримечательностей. Отведите время на посещение традиционных рынков, где вы сможете насладиться местной кухней и приобрести уникальные сувениры. Не упустите возможность погрузиться в мир японской культуры, посетив музеи, театры и особенно сады, чтобы полностью погрузиться в атмосферу этого удивительного города.

Tokio — zamonaviy texnologiyalar an'anaviy madaniyat bilan chatishib ketgan megapolis. Uning hayot qaynayotgan ko'chalarida zamonaviy osmono'par binolar, an'anaviy ibodatxonalar va ko'plab ajoyib diqqatga sazovor manzillarni topasiz. Mahalliy taomlardan bahramand bo'lib, noyob suvenirlar sotib olishingiz mumkin bo'lgan mahalliy bozorlarga tashrif buyurishga vaqt ajrating. Muzey, teatr va ayniqsa, bog'larga tashrif buyurib, bu o'zgacha shahar muhiti va yapon madaniyati olamiga g'arq bo'lish imkoniyatini boy bermang.

- Насладитесь видом на город с Токийской башни – одной из самых известных городских достопримечательностей
- Посетите Сэнсодзи[1] – старейший буддийский храм
- Прогуляйтесь по красивому национальному саду Синдзюку Гёэн, расположенному в сердце города
- Исследуйте территорию и сады вокруг резиденции императора
- Оцените современные развлечения и магазины в районе Одайба[2]
- Попробуйте свежие морепродукты на знаменитом рыбном рынке Цукидзи

- Shaharning eng mashhur diqqatga sazovor joylaridan biri – Tokio minorasida turib shahar manzarasidan bahramand bo'ling
- Eng qadimgi buddistlar ibodatxonasiga — Sensodziga[1] tashrif buyuring
- Shahar markazida joylashgan ko'rkam Shindzyuku Gyoen milliy bog'ida sayr qiling
- Imperator qarorgohi atrofidagi hudud va bog'larni o'rganing
- Odayba hududidagi[2] zamonaviy ko'ngilochar manzillar va do'konlarga baho bering
- Mashhur Sukidzi baliq bozorida yangi dengiz mahsulotlarini tatib ko'ring

Обязательно попробуйте:

- Суши[3] – традиционное японское блюдо
- Настоящий японский рамен
- Темпура – обжаренные в кляре морепродукты и овощи
- Якитори[4] – шашлычки из курицы, приготовленные на углях
- Удон – пшеничную лапшу в горячем бульоне
- Тонкацу[5] – жареную котлету с хрустящей корочкой
- Моти – сладкий рисовый пирожок

Albatta tatib ko'ring:

- Sushi[3] — an'anaviy yapon taomi
- Haqiqiy yapon rameni
- Tempura — tuxumli xamirda qovurilgan dengiz mahsulotlari va sabzavotlar
- Yakitori[4] — ko'mirda pishirilgan tovuq go'shtidan kabob
- Udon — bug'doy ugrali qaynoqqina sho'rva
- Tonkatsu[5] — qarsildoq qobiqli qovurilgan kotleta
- Moti — guruch to'ldirilgan shirin pishiriq





Запечатлите:

- Панорамные виды города, открывающиеся с Токийской башни
- Старинный храм Сэнсодзи и его окрестности
- Красоты сада Синдзюку Гёэн[6]
- Один из самых оживленных перекрестков в мире – перекресток Сибуя[7]

Suratga oling:

- Shaharning Tokio minorasidan ko'rinadigan panoramali manzaralar
- Qadimgi Sensodzi ibodatxonasi va uning atrofi
- Shindzyuku Gyoen bog'ining[6] go'zalligi
- Dunyodagi eng gavjum chorrahalardan biri — Sibuya chorrahasi[7]

Не забудьте забрать с собой:

- Традиционное кимоно[8], веера
- Японский фарфор
- Чай матча
- Японские сладости тайяки и дораяки
- Комиксы, фигурки и сувениры, связанные с японской поп-культурой
- Куклы дарума и кокеши[9] — традиционные японские игрушки

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- An'anaviy kimono[8], yelpig'ichlar
- Yapon chinnisi
- Matcha choyi
- Yapon shirinliklari — tayaki va dorayaki
- Yapon pop madaniyati bilan bog'liq komiks, haykalcha va suvenirlar
- An'anaviy yapon o'yinchoqlari — daruma va kokeshi[9] qo'g'irchoqlari

8 | Паттайя
Pattaya

Паттайя — живописный курортный город, который предлагает разнообразие развлечений на любой вкус и возраст. Здесь вы найдете красивые пляжи с мягким песком и теплым морем, оживленные набережные с многочисленными ресторанами, барами и магазинами, интересные экскурсии по окрестностям. Насладитесь аквапарками, тематическими парками и ночными развлечениями, которые делают этот город популярным местом отдыха для туристов со всего мира. В Паттайе вы можете отдохнуть от повседневной суеты и проникнуться атмосферой лёгкости и веселья.

Pattaya — har qanday yoshga va didga mos keluvchi turli xil ko'ngilochar tadbirlarni taklif qiluvchi go'zal kurort shahri. Bu yerda yumshoq qum va iliq dengiz suvlari yuvib turgan ajoyib plyajlarni, ko'plab restoran, bar va do'konlar joylashgan gavjum sohil bo'yi, tevarak-atrof bo'ylab qiziqarli ekskursiyalarni topasiz. Shaharni butun dunyo sayyohlari uchun mashhur dam olish maskaniga aylantirgan akvapark, tematik park va tungi ko'ngilochar tadbirlardan bahramand bo'ling. Pattayada kundalik behalovatlikdan dam olib, xotirjamlik va vaqtichog'lik muhitidan bahra olishingiz mumkin.

- Посетите храм Истины[1] – уникальное деревянное сооружение, построенное без единого гвоздя
- Отправьтесь в Парк миниатюр Мини-Сиам, где представлены копии известных достопримечательностей со всего мира
- Ощутите колорит плавучего рынка
- Прогуляйтесь в ботаническом саду Нонг Нуч[2] среди тропических растений и красивейших цветов
- Проведите время на пляже Джомтьен – популярном месте для отдыха и занятия водными видами спорта
- Насладитесь местными деликатесами и атмосферой ночного рынка

Обязательно попробуйте:

- Пад тай[3] – популярное тайское блюдо из рисовой лапши с креветками или курицей
- Сом там – острый салат из зеленой папайи с орехами и морепродуктами
- Том ям[4] – кисло-острый суп с креветками или курицей
- Кхао пхат – жареный рис с овощами и мясом или морепродуктами
- Массаман карри[5] – тайский вариант карри с арахисом и картофелем
- Сатэй – шашлычки из курицы или свинины с арахисовым соусом
- Манго с рисом и кокосовым молоком

Albatta tatib ko'ring:

- Pad tay[3] — qisqichbaqa yoki tovuq go'shti solingan Tailandning mashhur guruchli ugra oshi
- Som tam — yong'oq va dengiz mahsulotlari qo'shilgan yashil papayyali salat
- Tom yam[4] — qisqichbaqa yoki tovuqli nordon-achchiq sho'rva
- Kxao Pxat — dasturxonga sabzavot va go'sht yoki dengiz mahsulotlari bilan birga tortiladigan qovurilgan guruch
- Massaman karri[5] — yeryong'oq va kartoshkali karrining tay varianti
- Satey — yong'oq sousli tovuq yoki cho'chqa go'shtidan kabob
- Guruch va kokos sutida mango

Не забудьте забрать с собой:

- Кокосовое масло
- Тайские специи и пасты для карри
- Традиционные изделия из шелка, фарфора или дерева
- Разнообразные виды травяного чая
- Уходовые средства на основе экстрактов трав и фруктов
- Украшения и предметы интерьера, изготовленные местными мастерами[9]

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Kokos yog'i
- Tay ziravorlari va karri uchun ugra
- An'anaviy ipak, chinni yoki yog'ochdan yasalgan buyumlar
- O'simlik choyining har xil turlari
- O'simlik va meva ekstraktlari asosida tayyorlangan parvarishlash mahsulotlari
- Mahalliy hunarmandlar yasagan taqinchoqlar va uy bezak buyumlari[9]

Запечатлите:

- Величественную архитектуру и резьбу по дереву храма Истины
- Миниатюрные копии известных достопримечательностей в парке Мини-Сиам[6]
- Яркие лодки и торговцев на плавучем рынке[7]
- Экзотические растения ботанического сада Нонг Нуч
- Закат и пейзажи пляжа Джомтьен[8]
- Величие храма Большого Будды

Suratga oling:

- Haqiqat ibodatxonasining ulug'vor me'morchiligi va yog'och o'ymakorligi
- Mini-Siam bog'idagi[6] mashhur diqqatga sazovor joylarning miniatyura nusxalari
- Suzuvchi bozordagi[7] yorqin rangli qayiqlar va sotuvchilar
- Nong Nuch botanika bog'idagi ekzotik o'simlik va gullar
- Jomtyen[8] plyajidagi quyosh botishi va manzaralar
- Katta Budda ibodatxonasining ulug'vorligi



9 | Бали
Bali

Бали — остров в Индонезии, который привлекает путешественников своими белоснежными пляжами, изумительной природой и богатой культурой. Здесь вы можете насладиться серфингом на волнах Индийского океана, погрузиться в мир древних храмов и святынь, исследовать удивительные водопады и вулканы, попробовать яркую балийскую кухню. Бали – это идеальное место для тех, кто ищет приключений, духовного развития или просто желает отдохнуть в уютной обстановке в окружении красот природы.

Bali — Indoneziyadagi orol, u o'zining qordek oppoq plyajlari, ajoyib tabiati va boy madaniyati bilan sayohatchilarni jalb etadi. Bu yerda Hind okeani to'lqinlarida syorfing bilan shug'ullanishingiz, qadimiy ibodatxona va ziyoratgohlar dunyosiga cho'mishingiz, ajoyib sharshara va vulqonlarni o'rganishingiz, rang-barang bali taomlarini tatib ko'rishingiz mumkin. Bali — sarguzasht qidirganlar, ma'naviy o'sishni yoki shunchaki, tabiat go'zalligi qurshovidagi qulay shinam muhitda dam olishni istaganlar uchun mukammal manzil.



- Посетите один из самых известных и живописных храмов на острове, расположенный на скале в море – храм Танах Лот[1]
- Полюбуйтесь захватывающими видами на океан с вершины храма Улувату на вершине скалы
- Прогуляйтесь по уникальным рисовым террасам, наслаждаясь зелеными пейзажами
- Исследуйте Обезьяний лес[2] и древние храмы
- Вдохновитесь прекрасным водопадом Тегенунган, спрятанным в джунглях
- Погрузитесь в оживленную ночную жизнь пляжа Кута – популярного места для отдыха и серфинга
- Проникнитесь атмосферой рынка Убуд – места, где можно купить уникальные сувениры, изделия местных мастеров и традиционные товары

- Dengizdagi qoyada joylashgan orolning eng mashhur va chiroyli ibodatxonalaridan biri — Tanax Lot[1] ibodatxonasiga tashrif buyuring
- Qoya cho'qqisida joylashgan Uluvatu ibodatxonasi tepasidan hayratga soluvchi okean manzaralarini tomosha qiling
- Guruch terrasalari bo'ylab sayr qilib, atrofdagi yashil manzaralardan zavq oling
- Maymunlar o'rmoni[2] va qadimiy ibodatxonalarni o'rganing
- Junglida yashiringan go'zal Tegenungan sharsharasidan Ilhom oling
- Dam olish va syorfing uchun mashhur joy — Kuta plyajining tungi gavjum hayotiga sho'ng'ing
- Noyob suvenirlar, mahalliy hunarmandlar yasagan buyumlar va an'anaviy mahsulotlarni xarid qilish mumkin bo'lgan Ubud bozori muhitini his eting

Обязательно попробуйте:

- Наси горенг[3] – жареный рис с овощами, мясом или морепродуктами, часто подаваемый с яйцом
- Мие горенг – жареную лапшу с овощами, курицей или морепродуктами, популярное уличное блюдо
- Баби гулинг – традиционного балийского поросёнка на вертеле, маринованного в специях и жареного до хрустящей корочки
- Сате лилит[4] – шашлычки из фарша рыбы или мяса, смешанные с кокосом и специями, нанизанные на лимонное дерево
- Бебек бетуту[5] – утку, запеченную с травами и специями, традиционное праздничное блюдо
- Гадо-гадо – салат из вареных овощей, яиц и темпе, подаваемый с арахисовым соусом

Albatta tatib ko'ring:

- Nasi goreng[3] — dasturxonga ko'pincha tuxum bilan birga tortiladigan sabzavot, dengiz mahsulotlari yoki go'shtli qovurilgan guruch
- Miye goreng — mashhur ko'cha taomi hisoblanadigan sabzavot, dengiz mahsulotlari yoki tovuq go'shtli qovurilgan ugra
- Babi guling — ziravorlar bilan marinadlangan va qarsildoq qobiq hosil bo'lgunga qadar qovurilgan an'anaviy cho'chqa bolasi
- Sate lilit[4] — kokos va ziravorlar bilan aralashtirilib, limon daraxti novdalariga tizilgan qiyma baliq yoki go'shtli kabob
- Bebek betutu[5] — an'anaviy bayram taomi hisoblanadigan, ko'kat va ziravorlar bilan pishirilgan o'rdak
- Gado-gado — qaynatilgan sabzavot, tuxum va tempedan tayyorlangan va dasturxonga yeryong'oq sousi bilan tortiladigan salat

6

7

Запечатлите:

- Храм Танах Лот, особенно на фоне заката
- Рисовые террасы Тегаллаланг[6]
- Водопад Тегенунган
- Обезьяний лес и древние храмы, утопающие в зелени
- Волны, серферов и красивый закат на пляже Кута[7]
- Панорамные виды на океан с вершины скалы, где расположен храм Улувату
- Местные традиции, танцы и яркие сувениры на уличных рынках и фестивалях

Suratga oling:

- Tanax lot ibodatxonasi, ayniqsa, quyosh botishi vaqtida
- Tegallalang guruch terrasalari[6]
- Tegenungan sharsharasi
- Maymunlar o'rmoni va o'simliklar ichiga ko'milgan qadimiy ibodatxonalar
- To'lqinlar, syorerlar va Kuta plyajidagi[7] chiroyli quyosh botishi
- Uluvatu ibodatxonasi joylashgan qoya tepasidan okeanning panoramali manzaralari
- Mahalliy urf-odatlar, ko'cha bozorlari va festivallardagi raqslar, yorqin suvenirlar

8

9

Не забудьте забрать с собой:

- Сувениры из дерева и камня[8]
- Яркие традиционные ткани и саронги
- Эфирные масла и свечи из натуральных ингредиентов
- Уникальные украшения местных мастеров
- Знаменитый балийский кофе лувак[9], известный уникальным способом обработки

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Yog'och va toshdan yasalgan suvenirlar[8]
- An'anaviy yorqin mato va sarongalar
- Efir moylari va tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan shamlar
- Mahalliy hunarmandlar yasagan kamyob taqinchoqlar
- O'ziga xos ishlov berish usuli bilan mashhur bo'lgan mashhur bali qahvasi — Luvak[9]

РЕКЛАМА

ORIENT MOTORS

ВМЕСТЕ К МЕЧТЕ

Ташкент, Мирабадский район, улица Туркистон 7

+998 71 205 0990

Orient Motors

Orient Motors

10 | Сингапур
Singapur



Сингапур — современный мегаполис в Юго-Восточной Азии, пышущий культурным разнообразием и великолепной архитектурой. Здесь можно насладиться разнообразием культурных и кулинарных впечатлений, исследовать музеи, парки и торговые центры, ощутить дух города, олицетворяющего современность и инновации.

Singapur — madaniyatlarning juda xilma-xilligi va ajoyib arxitekturaga ega bo'lgan Janubi-Sharqiy Osiyodagi zamonaviy megapolis. Bu yerda xilma-xil madaniyat va pazandachilik taassurotlarini olishingiz, muzey, bog' va savdo markazlarini o'rganishingiz, o'zida zamonaviylik va innovatsiyalarni mujassam etgan shahar muhitiniga sho'ng'ishingiz mumkin.

- Посетите Марину Бэй Сэндс[1] – символ Сингапура, чтобы насладиться потрясающими видами на город и поплавать в бассейне на высоте небоскреба
- Проведите время в Парке бабочек, где можно увидеть множество экзотических бабочек и тропических растений
- Отправьтесь в один из самых красивых ботанических садов в мире и насладитесь видами орхидей и тропической флоры[2]
- Проведите вечер в зоопарке, где можно понаблюдать за ночной жизнью животных и попробовать экскурсии на вагончиках
- Исследуйте традиционные китайские храмы, узкие улочки и рынки в Чайнатауне

- Shaharning betakror manzaralaridan bahramand bo'lish va osmono'par bino balandligidagi cheksiz hovuzda suzish uchun Singapurning ramzi bo'lgan Marina Bey Sendsga[1] tashrif buyuring
- Ekzotik kapalaklar va tropik o'simliklarning xilma-xilligini ko'rish uchun Kapalaklar bog'iga yo'l oling
- Dunyodagi eng go'zal botanika bog'laridan biriga[2] borib, orxideya va tropik flora turlaridan bahramand bo'ling
- Hayvonlarning tungi hayotini ko'rish va vagonchalarda ekskursiya qilish uchun oqshomni hayvonot bog'ida o'tkazing
- Chaynataundagi an'anaviy xitoy ibodatxonalari, tor ko'chalari va bozorlarini o'rganing



Обязательно попробуйте:

- Чили Краб[3] – блюдо с крабом, приправленным чили и специями
- Хайнаньский куриный рис – блюдо с нежным куриным мясом и ароматным рисом, приправленным соевым соусом
- Лаксу[4] – суп с рисовой лапшой, морепродуктами и ароматным кокосовым молоком
- Чар куэй тяоу – жареную лапшу с мидиями, креветками и красными перцами
- Роти прату – тонкий хлеб с карри или сладкими начинками

Albatta tatib ko'ring:

- Chili krab[3] — chili va ziravorlar qo'shib tayyorlangan qisqichbaqali taom
- Tovuqli xaynan guruchi — soya sousi bilan ziravorlangan yumshoq tovuq go'shti va xushbo'y guruchli taom
- Laksu[4] — guruchli ugra, dengiz mahsulotlari va xushbo'y kokos sutidan tayyorlangan sho'rva
- Char kuey tyaou — midiya, qisqichbaqa va qizil qalampirli qovurilgan ugra
- Roti pratu — karri yoki shirin nachinkali yupqa non

Запечатлите:

- Красоту разнообразных бабочек и тропических растений в Парке бабочек[5]
- Изумительные виды на город и небоскребы с берега Гардинерской бухты
- Мерлион – символ Сингапура[6], расположенный на набережной
- Захватывающие виды на город с панорамных площадок и высотных зданий Скайлайн
- Традиционные китайские храмы с их красочными украшениями и архитектурой

Suratga oling:

- Kapalaklar bog'idagi[5] turli xil kapalak va tropik o'simliklarning go'zalligi
- Gardiner ko'rfazi sohilidan shahar va osmono'par binolarning ajoyib manzaralari
- Merlion — Singapurning[6] sohil bo'yida joylashgan ramzi
- Skaylayn ko'p qavatli binolari va panoramali maydonchalaridan ko'rinadigan shaharning ajoyib manzaralari
- Rang-barang bezaklar va arxitekturaga ega an'anaviy Xitoy ibodatxonalari



Не забудьте забрать с собой:

- Фигурки Мерлиона[7]
- Традиционные китайские чайники и чашки[8]
- Сувениры с орхидеями[9]
- Национальные ткани и текстильные изделия: батик и саронги
- Украшения и аксессуары ручной работы из местных мастерских
- Баклаву, карамель, кокосовые конфеты и другие деликатесы

O'zingiz bilan olib kelishni unutmang:

- Merlion haykalchalari[7]
- An'anaviy Xitoy choynak va choy yoki qaxva ichish uchun mo'ljallangan idishlari[8]
- Orxideyali suvenirlar[9]
- Milliy matolar va to'qimachilik mahsulotlari: batik va sarongalar
- Mahalliy hunarmandlarning qo'lda ishlangan taqinchoq va aksessuarlari
- Baklava, karamel, kokosli konfet va boshqa tansiq shirinliklar

O‘z ko‘zingiz bilan: e’tiborga loyiq voqealar

Своими глазами: события, достойные внимания

АКВАШОУ LA PERLE BY DRAGONE
Где: Дубай, ОАЭ
Когда: 21 мая – 31 июля
La Perle – впечатляющее шоу, созданное легендарным режиссёром Франко Драгоне, посвящённое традициям добычи жемчуга в Эмиратах. Оно проходит в специально построенном театре, рассчитанном на применение новейших технологий в сценическом искусстве. Обрушивающиеся на сцену водопады, потоки дождя, изумительная хореография и впечатляющие трюки в исполнении артистов мирового уровня гарантированно подарят зрителям яркие впечатления. Приобрести билеты можно на сайте laperle.platinumlist.net.

LA PERLE BY DRAGONE AKVASHOUSI
Qaerda: Dubay, BAA
Qachon: 21-may – 31-iyul
La Perle — afsonaviy rejissyor Franko Dragone tomonidan Amirliklarda marvarid qazib olish an’analariga bag‘ishlab yaratilgan ajoyib shou. U sahna san’atida eng yangi texnologiyalarni qo‘llashga mo‘ljallangan, maxsus qurilgan teatrda o‘tkaziladi. Sahnaga yopirilib tushadigan sharsharalar va yomg‘ir oqimi, ajoyib xoreografiya va dunyo miqyosidagi san’atkorlar tomonidan ijro etilgan hayratlanarli tryuklar tomoshabinlarga yorqin taassurot tuhfa etishi aniq. Chiptalarni laperle.platinumlist.net veb-saytida xarid qilish mumkin.

ФЕСТИВАЛЬ СКИДОК DUBAI SUMMER SURPRISES 2024
Где: Дубай, ОАЭ
Когда: 28 июня – 1 сентября
Ежегодная феерия шопинга и развлечений встретит гостей множеством мероприятий, розыгрышами призов, увлекательными конкурсами и впечатляющими акционными предложениями.

CHEGIRMALAR FESTIVALI DUBAI SUMMER SURPRISES 2024
Qaerda: Dubay, BAA
Qachon: 28-iyun – 1-sentyabr
Har yili o‘tkaziladigan shoping va ko‘ngilochar tadbirlar mavsumi mehmonlarni ko‘plab tadbirlar, sovg‘ali o‘yinlar, qiziqarli tanlovlar va zo’r taassurot qoldiruvchi aksiya takliflari bilan kutib oladi.

DREAM FEST 2024
Где: Баку, Азербайджан
Когда: 23–28 июля
Dream Fest – шесть дней невероятного шоу и атмосферы легендарных фестивалей на берегу Каспийского моря. Ожидается выступление более 100 артистов из стран СНГ, Европы, Великобритании, Канады, Турции. Программа фестиваля доступна на сайте dreammusicfest.com.

DREAM FEST 2024
Qaerda: Boku, Ozarbayjon
Qachon: 23–28-iyul
DREAM FEST — Kaspiy dengizi sohilidagi olti kunlik aql bovar qilmas shou va afsonaviy festivallar muhiti. Festivalda MDH, Yevropa, Buyuk Britaniya, Kanada, Turkiya mamlakatlaridan tashrif buyuradigan 100 nafardan ortiq san’atkorlarning chiqishlari kutilmoqda. Festival dasturi bilan dreammusicfest.com veb-saytida tanishish mumkin

ФЕСТИВАЛЬ ФЕЙЕРВЕРКОВ
Где: Токио, Япония
Когда: 28 июля
В последнюю субботу июля небо над рекой Сумида расцвечивается огненными цветами. Традиция запускать фейерверки восходит к 1733 году. За это время в истории фестиваля случались перерывы, но с 1978 года он стал ежегодным.

MUSHAKBOZLIK FESTIVALI
Qaerda: Tokio, Yaponiya
Qachon: 28-iyul
Iyul oyining oxirgi shanba kuni Sumida daryosi uzra osmon olovli gullarga burkanadi. Mushakbozlik an’anasi 1733-yilga borib taqaladi. Shu davrdan beri festival tarixida tanaffuslar bo‘ldi, ammo 1978-yildan beri u har yili o‘tkazib kelinmoqda.

BLACK SEA JAZZ FESTIVAL
Где: Батуми, Грузия
Когда: 28–30 июля
Ежегодный музыкальный фестиваль, основанный в 2007 году, известен насыщенной программой, включающей выступления мировых звезд джаза, блюза и музыки в стилях R&B, соул, диско, фанк, рок и хип-хоп. Фестиваль ежегодно привлекает множество туристов и ценителей музыки со всего мира, объединяя людей через любовь к живой музыке.

BLACK SEA JAZZ FESTIVAL
Qaerda: Batumi, Gruziya
Qachon: 28–30-iyul
2007-yilda tashkil etilgan va har yili o'tkaziladigan musiqa festivali. Festival boy dasturi bilan mashhur, unda jaz, blyuz va R&B, soul, disko, fank, rok, xip-xop yo'nalishidagi dunyo musiqa olami yulduzlarining chiqishlari o'rin olgan. Festival har yili dunyoning turli burchaklaridan ko'plab sayyohlarni va musiqa ixlosmandlarini jalb qilib, odamlarni jonli musiqaga bo'lgan muhabbatlari orqali birlashtiradi.

ТУРНИР UFC FIGHT NIGHT
Где: Абу-Даби, ОАЭ
Когда: 3 августа
Мировой турнир по смешанным единоборствам UFC Fight Night будет проведён Департаментом культуры и туризма Абу-Даби в партнерстве с UFC в восемнадцатый раз. На данный момент полный перечень спортсменов, участвующих в соревновании, ещё не объявлен, но в том, что это будет бескомпромиссное противостояние лучших из лучших, сомневаться не приходится.

UFC FIGHT NIGHT TURNIRI
Qaerda: Abu-Dabi, BAA
Qachon: 3-avgust
UFC Fight Night aralash yakka kurash bo'yicha jahon turniri Abu-Dabi madaniyat va turizm departamenti tomonidan UFC bilan hamkorlikda o'n sakkizinchi marta o'tkaziladi. Ayni paytda, musobaqada ishtirok etadigan sportchilarning to'liq ro'yxati hali e'lon qilinmagan, ammo bu eng kuchlilarning murosasiz qarama-qarshiligi bo'lishiga shubha yo'q.

КОНЦЕРТ ГРУППЫ PLACEBO
Где: Стамбул, Турция
Когда: 4 августа
Placebo – британская группа, исполняющая альтернативный рок и инди-рок. Основанная в 1994 году, группа быстро завоевала популярность благодаря эмоционально насыщенной музыке и уникальному стилю. По сей день музыканты выпускают новые альбомы, участвуют в фестивалях мирового уровня и создают запоминающуюся атмосферу на каждом концерте.

PLACEBO GURUHI KONSERTI
Qaerda: Istanbul, Turkiya
Qachon: 4-avgust
Placebo — muqobil rok va indi-rok yo'nalishida ijro etuvchi ingliz guruhi. 1994-yilda tashkil etilgan guruh hissiyotlarga boy musiqa va o'ziga xos uslubi tufayli tezda mashhurlikka erishdi. Musiqachilar bugungi kunga qadar yangi albomlar chiqarib, jahon miqyosidagi festivallarda ishtirok etmoqda va har bir konsertda unutilmas muhit yaratmoqda.

КОНЦЕРТ ЭДА ШИРАНА
Где: Ларнака, Кипр
Когда: 7–8 сентября
Эд Ширан – британский певец и автор песен, музыка которого привлекает множество поклонников искренностью и эмоциональным теплом. Благодаря сочетанию мелодичных баллад и зажигательных хитов, каждое его выступление оставляет незабываемое впечатление.

ED SHEERAN KONTSERTI
Qaerda: Larnaka, Kipr
Qachon: 7–8-sentyabr
Ed Sheeran — britaniyalik qo'shiqchi va qo'shiqlar muallifi, uning musiqasi ko'plab muxlislarni samimiy hissiyotlar bilan o'ziga jalb qilgan. Melodik balladalar va otashin xitlar uyg'unligi tufayli uning har bir ijrosi unutilmas taassurot qoldiradi.

КОНЦЕРТ ЛОЛЫ ЮЛДАШЕВОЙ
Где: Ташкент, Узбекистан
Когда: 27–29 сентября
Впервые за несколько лет одна из самых ярких звёзд узбекской эстрады выступит с сольным концертом. Программа будет включать в себя живое выступление, эксклюзивное шоу и любимые хиты.

LOLA YO'LDOSHEVA KONSERTI
Qaerda: Toshkent, O'zbekiston
Qachon: 27–29-sentyabr
O'zbek estradasining eng yorqin yulduzlaridan biri, bir necha yil deganda birinchi marta yakkaxon konsert beradi. Dastur jonli ijro, kutilmagan shou va sevimli xitlardan iborat bo'ladi.



ФОРМУЛА-1. ГРАН-ПРИ АЗЕРБАЙДЖАНА
Где: Баку, Азербайджан
Когда: 13–15 сентября
Вы когда-нибудь задумывались о том, чтобы посмотреть Гран-при Формулы-1 на Каспийском побережье в старом городе, внесённом в список Всемирного наследия ЮНЕСКО? Баку, где проходит Гран-при Азербайджана, является одной из самых быстрых уличных трасс в мире, скорость на которой достигает 340 км/ч. Гостей ожидают фан-форум, выставки, челленджи и другие события.

FORMULA-1. OZARBAYJON GRAN-PRISI
Qaerda: Boku, Ozarbayjon
Qachon: 13–15-sentyabr
Siz Kaspiy sohilidagi UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan eski shaharda Formula-1 Gran-prisini tomosha qilish haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Ozarbayjon Gran-prisi o'tkaziladigan Boku dunyodagi eng tez ko'cha trassalaridan biri bo'lib, unda bolidlar tezligi soatiga 340 km ga chiqadi. Mehmonlarni fan-forumlar, ko'rgazmalar, chlenjlar va turli yorqin dasturlar kutmoqda.

CENTRUMAIR

КОНЦЕРТ ESTAS TONNE

Где: Тбилиси, Грузия
Когда: 24 сентября

Estas Tonne – всемирно известный гитарист-виртуоз, сочетающий в своём творчестве элементы классической гитары, фламенко, джаза и других жанров. Мероприятие пройдет в рамках международного турне, которое охватывает такие города, как Ереван, Тбилиси, Афины, Стамбул, Лимассол и Дубай. В каждом из этих городов состоится только по одному концерту, что делает событие особенно значимым. Приобрести билеты можно на сайте estastonne.com.

ESTAS TONNE KONSERTI

Qaerda: Tbilisi, Gruziya
Qachon: 24-sentyabr

Estas Tonne — o'z ijodida klassik gitara, flamenko, jazz va boshqa janrlarning elementlarini birlashtirgan dunyoga mashhur yuksak mahoratli gitarachi. Tadbir Yerevan, Tbilisi, Afina, Istanbul, Limassol va Dubay kabi shaharlarni qamrab olgan xalqaro tur doirasida bo'lib o'tadi. Bu shaharlarning har birida faqat bittadan konsert bo'ladi va bu tadbirni ayniqsa mazmunli qiladi.
Chiptalarni estastonne.com veb-saytida xarid qilish mumkin.

КОНЦЕРТ ГРУППЫ IRON MAIDEN

Где: Токио, Япония
Когда: 26 сентября

Iron Maiden – британская рок-группа, в начале 1980-х годов являвшаяся одним из известнейших представителей новой волны британского хеви-метала. Музыканты продали свыше 100 миллионов копий альбомов по всему миру. За международные достижения коллектив в 2002 году был награждён премией Ivor Novello Awards, а в 2005 году приглашен увековечить отпечатки ладоней на Hollywood RockWalk.

IRON MAIDEN GURUHI KONSERTI

Qaerda: Tokio, Yaponiya
Qachon: 26-sentyabr

Iron Maiden — 1980-yillarning boshida Britaniya xevi-metali yangi to'lqinining eng mashhur vakillaridan biri bo'lgan xevi-metal guruhi. Musiqachilarning albomlari butun dunyo bo'ylab 100 milliondan ortiq nusxada sotilgan. Xalqaro yutuqlari uchun jamoa 2002-yilda Ivor Novello Awards mukofotiga sazovor bo'lgan, 2005-yilda esa musiqachilar Hollywood RockWalk sementida qo'l izlarini abadiylashtirishga taklif qilingan.

Яндекс Музыка

Yandex Plus bilan 0 UZS evaziga musiqa sadolari hamrohligida 90 kun sayohat qiling

Путешествуйте под музыку с Яндекс Плюсом 90 дней за 0 UZS

Mening to'lqinim"ning aqlli tavsiya tizimiga ishonch bildirib, o'zbek va xorijiy ijrochilarning qo'shiqlarini tinglang. Yo'lda hatto internetsiz ham tinglash uchun barcha kerakli narsalarni oldindan yuklab oling.

Доверьтесь умной системе рекомендаций Моя волна и слушайте песни узбекистанских и зарубежных исполнителей. Скачивайте всё необходимое заранее, чтобы слушать в дороге даже без интернета.

PLUSMC7

QR-kod yoki ya.cc/cm_uz havolasi orqali o'ting va yuqoridagi promokodni faollashtiring.

Перейдите по QR-коду или по ссылке ya.cc/cm_uz и активируйте промокод выше.

Условия подписки Яндекс Плюс: ya.cc/b. 90 дней подписки Яндекс Плюс бесплатно, далее автопродление — 9 999 сумов/мес. Предложение только для новых пользователей, ранее не имевших подписку Яндекс Плюс (или иные подписки, её включающие). Требуется указание данных банковской карты. Активировать промокод можно на ya.cc/cm_uz по 31.12.2024 г. Подробнее о предложении см. по ссылке: ya.cc/ca_terms_uz.

Yandex Plus obunasi shartlari: ya.cc/b. Yandex Plus obunasi 90 kun bepul, keyin avtomatik tarzda uzaytiriladi — oyiga 9 999 so'm. Taklif faqat ilgari Yandex Plus'ga (yoki uni o'z ichiga olgan boshqa obunalarga) ega bo'lmagan yangi foydalanuvchilar uchun. Bank kartasi ma'lumotlarini kiritish talab etiladi. Promokodni 31.12.2024 gacha ya.cc/cm_uz orqali faollashtirish mumkin. Taklif haqida batafsil: ya.cc/ca_terms_uz.

РЕКЛАМА

18+

CENTRUMAIR

CENTRUM HOLIDAYS

Centrum Holidays: вы – в центре отдыха!

Centrum Holidays: siz – dam olish markazidasiz!

centrum-holidays.com

Полететь в долгожданный отпуск на море в Таиланд? Прогуляться по улочкам старого города в Тбилиси? Или устроить головокружительный шопинг в Сингапуре?

А может, попробовать что-то новое и изучить природу национальных парков Малайзии? Вариантов отдохнуть – много. Выбирайте, а мы поможем начать это незабываемое путешествие!

Centrum Holidays – туроператор нового поколения. Почему мы так говорим? Потому что любим всё новое: новые направления, новые технологии, новые форматы. Мы можем организовать ваш отпуск от А до Я: подберем страну, оформим авиабилеты и страховой полис, забронируем отель и организуем трансфер, а еще предложим экскурсии и окутаем любовью и заботой. Все, что вам нужно, – просто собрать чемодан!

Centrum Holidays – мощный игрок в индустрии туризма, который предлагает не только отели и трансфер, но и собственную авиакомпанию для перелёта. Мы гордимся наличием более 500 профессиональных гидов по всем популярным туристическим направлениям. Мы продаем не туры, а впечатления и эмоции.

Тбилиси. Июнь, 2024

Тайланд. Май, 2024

С нами вы – в центре отдыха!

Uzoq kutilgan ta'tilda Tailanddagi dengizga uchib ketishni istaysizmi? Tbilisidagi eski shahar ko'chalarida sayr qilishnichi? Yoki Singapurda hayratlanarli shopingmi?

Balki biror yangi narsani sinab ko'rish uchun Malayziya milliy bog'larining tabiatini o'rganishni istarsiz? Dam olish uchun variantlar juda ko'p. Siz tanlang, biz esa, bu unutilmas sayohatni boshlashga yordam beramiz!

Centrum Holidays — yangi avlod turoperatori. Nega bunday deymiz? Chunki biz yangilikni — yangi yo'nalishlar, yangi texnologiyalar, yangi formatlarni yoqtiramiz. Ta'tilingizni A dan Z gacha tashkil qilishimiz mumkin: istagingizga binoan mamlakatni tanlab beramiz, aviachipta va sug'urta polisini rasmiylashtiramiz, mehmonxonani bron qilib, transfer tashkillashtiramiz, shuningdek ekskursiyalar taklif etib, mehr bilan qamrab olamiz va g'amxo'rlik qilamiz. Siz, shunchaki chamadoningizni yig'ishingiz kifoya!

Centrum Holidays — sayyohlik sohasida nafaqat mehmonxona va transferlarni, balki parvoz uchun o'z aviakompaniyasini ham taklif qiladigan kuchli vakil. Barcha mashhur sayyohlik yo'nalishlari bo'yicha 500 nafardan ortiq professional gidlarimiz borligi bilan faxrlanamiz. Biz turlarni emas, balki taassurot va hissiyotlarni sotamiz.

Biz bilan dam olish markazida bo'lasiz!

Куда отправиться в отпуск?

Выбирайте из широкого ассортимента туров Centrum Holidays

Ta'til uchun qayerga otlanish mumkin?

Centrum Holidays turlarning keng assortimentini taklif qiladi, tanlang:



Грузия | Gruziya **от $479 dan**

(Батуми, Тбилиси, Боржоми)
(Batumi, Tbilisi, Borjomi)

ОАЭ | BAA **от $398 dan**

(Дубай, Рас-эль-Хайма)
(Dubay, Ras Al-Xayma)

Малайзия | Malayziya **от $950 dan**

(Дубай, Рас-эль-Хайма)
(Dubay, Ras Al-Xayma)

Турция | Turkiya **от $879 dan**

(Измир, Трабзон, Стамбул)
(Izmir, Trabzon, Istanbul)

Япония | Yaponiya **от $2605 dan**

(Токио)
(Tokio)

Сингапур | Singapur **от $1798 dan**

(комботуры с отдыхом в Десару)
(Desarudan kombo-turlar)

Таиланд | Tailand **от $880 dan**

(Паттайя, Самуи, Бангкок)
(Pattaya, Samui, Bangkok)

Индонезия | Indoneziya **от $990 dan**

(Бали)
(Bali)

Azukar Moreno

УЗБЕКСКИЙ БРЕНД С ИСПАНСКИМ АКЦЕНТОМ

ispancha ohangga ega o‘zbek brendi



Наш разговор с основательницей узбекского бренда одежды и аксессуаров Azukar Moreno Камолой Рустамовой состоялся в промежутке между подготовкой к показу на Visa Fashion Week Tashkent 2024 и поездкой в Лондон. Камола дважды в год выпускает собственные коллекции, отличительной чертой которых является совмещение традиционной ткани икат с современными принтами. Сегодня Azukar Moreno – единственный национальный проект, представленный в зоне Duty Free Международного аэропорта «Ташкент» имени Ислама Каримова.

Конечно, в большей степени наш разговор был посвящен путешествиям: Камола рассказала о том, где предпочитает отдыхать, что любит делать на борту самолета, а также поведала, откуда черпает вдохновение.

Azukar Moreno o‘zbek kiyim-kechak va aksessuarlar brendining asoschisi Kamola Rustamova bilan suhbatimiz Visa Fashion Week Tashkent 2024 ko‘rgazmasiga tayyorgarlik ko‘rish va London safariga borish o‘ralig‘ida bo‘lib o‘tdi. Kamola an’anaviy adras matolarining zamonaviy printlar bilan uyg‘unlashgan o‘ziga xos xususiyatga ega shaxsiy kolleksiyalarini yiliga ikki marta chiqaradi. Bugungi kunda, Azukar Moreno – Islom Karimov nomidagi «Toshkent» xalqaro aeroportining Duty Free hududida taqdim etilgan yagona milliy loyiha sanaladi.

Albatta, bizning suhbatimiz ko‘proq sayohatlar haqida bo‘ldi: Kamola qayerda dam olishni afzal ko‘rishi, samolyotda nima bilan mashg‘ul bo‘lishni yoqtirishi, shuningdek, nimadan ilhomlanishi bilan bo‘lishdi.

О бренде

Azukar Moreno – женский бренд одежды и аксессуаров, чей шоурум расположен в этнопарке «Навруз» в Ташкенте. Его основательница Камола Рустамова получила образование в Испании и была признана лучшим молодым дизайнером Андалусии в 2007 году и Мадрида – в 2012 году. Она работала с такими известными модными домами, как Max Mara, Jimmy Choo, Victorio & Lucchino, Purificación García, Carolina Herrera, а также компанией Inditex, и участвовала в показах мод в Узбекистане, Европе и Южной Америке.

Сегодня Azukar Moreno предлагает не только одежду, но и обувь, сумки, аксессуары и головные уборы в качестве дополнения к своим коллекциям, однако наибольшей популярностью пользуются оригинальные душегрейки бренда. В любом предмете одежды присутствует уникальный элемент, который выступает в качестве своеобразного послания, призванного подчеркнуть индивидуальность каждой женщины.

Одежда от Камолы пользуется огромным спросом, и в мае 2024 года шоурум был вынужден временно закрыться из-за распродажи всего ассортимента и направления усилий команды на создание новой коллекции.

Brend haqida

Azukar Moreno — ayollar kiyimlari va aksessuarlari brendi, uning shourumi Toshkentdagi «Navro‘z» etnoparkida joylashgan. Brend asoschisi Kamola Rustamova Ispaniyada tahsil olgan va 2007-yilda Andalusiyaning, 2012-yilda esa, Madridning eng yaxshi yosh dizayneri, deb e’tirof etilgan. U Max Mara, Jimmy Choo, Victorio & Lucchino, Purificación García, Carolina Herrera va Inditex kabi mashhur moda uylari bilan hamkorlik qilgan, hamda O‘zbekiston, Yevropa va Janubiy Amerikadagi moda ko‘rgazmalarida ishtirok etgan.

Bugungi kunda Azukar Moreno nafaqat kiyim-kechak, balki o‘z kolleksiyalariga qo‘shimcha sifatida poyabzal, sumkalar, aksessuarlar va bosh kiyimlarni ham taklif etadi, brendning original nimchalari – uning eng mashhur mahsuloti hisoblanadi. Kiyimning istalgan qismida uni noyob qilib, har bir ayolning betakrorligini ta’kidlaydigan, o‘ziga xos darakchi vazifasini bajaradigan element mavjud.

Kamolaning kiyim-kechaklariga talab juda katta, butun assortiment sotilib ketgani va jamoaning barcha sa’y-harakatlari yangi kolleksiyani yaratishga qaratilgani tufayli 2024-yilning may oyida shourum vaqtincha yopilishga majbur bo‘ldi.

— Камола, расскажите, как появилось такое непривычное для жителя нашей страны название бренда?

— В 2004 году, когда мне было 20 лет, я отправилась в Мадрид изучать искусство дизайна. Приехала туда без знания языка, и для быстрой адаптации мне посоветовали начать работать няней. Четырёхлетний мальчик, за которым я присматривала, называл меня «azúcar», что в переводе с испанского означает «сахар». Второе слово – «morena» – означает в Испании «загорелая девушка-брюнетка». Сочетание этих слов и стало названием бренда.

— Kamola, ayting-chi, mamlakatimiz aholisi uchun g‘ayrioddiy bo‘lgan hunday brend nomi qanday paydo bo‘ldi?

– 2004 yilda, 20 yoshimda dizayn san’atini o‘rganish uchun Madridga yo‘l oldim. Men u yerga tilni bilmasdan bordim, tezda moslashishim uchun menga enaga sifatida ishlashni maslahat berishdi. Men parvarish qilgan to‘rt yoshli bolakay meni «azúcar» — ispanchada «shakar» so‘zi bilan chaqirardi. Ikkinchi so‘z – «morena» esa, Ispaniyada «qoramag‘iz qiz» degan ma’noni anglatadi. Ushbu so‘zlarning kombinatsiyasi brend nomiga aylandi.

— Как восприняли ваши родные новость о том, что вы уезжаете учиться за границу?

— Конечно, это нетипично для нашего менталитета – юная, незамужняя девушка отправляется одна в другую страну. Испания была для меня как тёмный лес, плюс ко всему тогда не было ни мессенджеров, ни социальных сетей для быстрой связи. Мы переписывались с родителями письмами. Но я уверена, что это был лучший выбор в моей жизни, выбор, который повлиял на всю дальнейшую судьбу. Главное, родители поддержали меня, давая свободу и не мешая моим решениям.

— У вас был крупный проект в Испании. Расскажите о нём подробнее.

— Да, многие мои проекты создавались и продолжают создаваться за пределами Узбекистана. Один из моих любимых и самых масштабных – это подготовка 4000 образов для парада в Испании. Весь процесс занял четыре года! Не все, но большая часть костюмов была сшита в нашем ателье. Сложность проекта заключалась в том, что работа велась почти по всему Узбекистану: полотно ткали в Маргилане, вышивку делали в Бухаре, Навои, Самарканде и Ташкенте, а украшения изготавливала целая семейная династия в Коканде. Особенно запомнился костюм, целиком сделанный из металла – на это ушел целый год. И что немаловажно, этот проект позволил многим нашим ремесленникам выжить во время пандемии, когда все сидели дома и не было заказов.

— O'qish uchun chet elga ketayotganingiz haqidagi yangilikni yaqinlaringiz qanday qabul qilishgandi?

– Albatta, yosh va turmushga chiqmagan qizning boshqa mamlakatga yolg'iz ketishi bizning mentalitetimizga xos emas. Ispaniya men uchun qorong'i o'rmon bo'lib, kamiga tezkor aloqa uchun o'sha paytlarda na messenjerlar, na ijtimoiy tarmoqlar bor edi. Ota-onam bilan xat orqali xabarlashardik. Ammo, ishonchim komilki, bu keyingi taqdirimga ta'sir qilgan hayotimdagi eng yaxshi tanlov edi. Eng muhimi, ota-onam erkinlik berib va qarorlarimga xalaqit bermay meni qo'llab-quvvatlashdi.

— Ispaniyada katta loyihani amalga oshirganingizdan xabarimiz bor. Shu haqida batafsil so'zlab bersangiz.

– Ha, mening ko'plab loyihalarim O'zbekistondan tashqarida yaratilgan va yaratilmoqda. Mening eng sevimli va eng yirik loyihalarimdan biri – Ispaniyadagi parad uchun 4000 ta obrazni tayyorlash edi. Butun jarayon to'rt yil davom etdi! Kostyumlarning hammasi emas, lekin aksariyati bizning atelyemizda tikildi. Loyihaning murakkabligi shunda ediki, ish deyarli butun O'zbekiston bo'ylab olib borildi: Marg'ilonda mato to'qildi, Buxoro, Navoiy, Samarqand va Toshkentda kashta tushirildi, zargarlik buyumlarini esa Qo'qondagi butun oilaviy sulola yasadi. Ayniqsa, butunlay metalldan yasalgan kostyum esda qolarli bo'ldi – u bir yil davomida yaratildi. Muhimi, ushbu loyiha pandemiya paytida barcha uyida o'tirgan va buyurtmalar umuman bo'lmagan paytda ko'plab hunarmandlarimizni ish bilan ta'minladi.

— Вы побывали во многих странах мира. Какие из них стали вашими любимыми?

— После Узбекистана самой близкой для меня является Испания, так как там я училась, жила и делала первые шаги в дизайнерском деле. Вообще, люблю все страны, где бывала: везде меня принимали с душой, всюду у меня появлялись друзья и интересные знакомства. Но, наверное, самые запоминающиеся – это латиноамериканские страны. Мне нравятся места, где есть моря и океаны, хотя я не умею плавать, но с удовольствием пожила бы на берегу.

Еще люблю большие города, где можно долго бродить по улицам и потеряться в толпе, например, в Милане. Мне нравится наблюдать за проходящими мимо людьми, разглядывать их. Так я не трачу энергию на общение, но получаю её от окружающей обстановки. Люблю мощь мегаполисов с небоскрёбами, где рано просыпаешься и бежишь за кофе и пончиком, чтобы начать новый рабочий день. А в природных местах я восстанавливаюсь и отсыпаюсь за несколько дней, но затем большие города и их ритмы снова меня манят.

— Что в путешествиях может вдохновить вас на новые идеи?

— Я вдохновляюсь местами, людьми и событиями, которые никогда раньше не видела. Это может быть старенький итальянский ресторанчик, сцена за соседним столиком, музыка в ресторане или вид из окна.

Например, на коллекцию «Якорь» меня вдохновила Валенсия. В 2022 году на мероприятии в морской тематике еду подавали в ракушках, которые потом собирались выбросить. Как человек, внимательно относящийся к природе, я не могла позволить пропасть такому добру и взяла их с собой в Узбекистан. Также во время отдыха на пляже мне понравилось сочетание спасательного круга с декоративным синим якорем – так появилась ткань икат с оригинальным рисунком. По моему рисунку ее ткали мастера из Маргилана. Коллекция оказалась настолько популярной, что до сих пор, спустя год, спрашивают вещи с этим узором.

Якорь стал нашей фишкой, визитной карточкой Azukar Moreno. Он символизирует устойчивость и ассоциируется с женщиной, которая крепко стоит на ногах и имеет много возможностей.

Сейчас мы готовим коллекцию, вдохновлённую Лиссабоном. Замысел возник, когда я наблюдала на площади за молодыми ребятами, поющими и танцующими прямо на улице. Тропическая коллекция с латиноамериканским духом призвана передать атмосферу праздника. Кстати, недавно клиентка, будучи в Севилье, сказала, что видит вокруг себя мои идеи и понимает, о чем были мои коллекции. Я горжусь, что могу передать ощущения от любимых мест через своё творчество.

— Dunyoning ko`plab mamlakatlarida bo`lgansiz. Ularning qaysi biri sizning eng sevimlilaringizga aylangan?

— O'zbekistondan keyin men uchun eng yaqini Ispaniya, chunki men u yerda o'qiganman, yashaganman va dizaynerlik sohasidagi birinchi qadamlarimni qo'yganman. Umuman olganda, borgan barcha mamlakatlarimni yaxshi ko'raman, hamma joyda meni samimiy kutib olishgan, do'st va tanishlar orttirganman. Ammo, eng esda qolarlisi Lotin Amerikasi mamlakatlari bo'lsa kerak. Garchi suzishni bilmasam ham dengizlari va okeanlari bo'lgan joylarni yoqtiraman, jon deb sohil bo'yida yashagan bo'lardim. Shu bilan birga, ko'chalarida uzoq vaqt aylanib, olomon bilan aralashib ketishingiz mumkin bo'lgan katta shaharlarni, masalan, Milanni yaxshi ko'raman. Yonimdan o'tayotgan odamlarni kuzatishni, ularga razm solishni yoqtiraman. Shu tarzda, muloqot uchun energiya sarflamayman, aksincha, uni atrofimdagi muhitdan olaman. Yangi ish kunini boshlash uchun erta uyg'onib, qahva va ponchiklar uchun yugurishingiz kerak bo'lgan, osmono'par binolari bor megapolislar qudratini yoqtiraman. Tabiat qo'ynida esa bir necha kunlik uyqumni olib, o'zimni tiklayman, keyin baribir katta shaharlar va ularning ritmi meni yana jalb qiladi.

— Sayohatlar vaqtida nima sizni yangi g'oyalarga ilhomlantirishi mumkin?

— Men sayohatlarda yangi joylar, odamlar va ilgari ko'rmagan yoki boshimdan kechirmagan voqealardan ilhom olaman. Bu eski italyan restorani, qo'shni stolda ro'y bergan voqea, restorandagi musiqa yoki deraza ortidagi manzara bo'lishi mumkin.

Masalan, «Langar» kolleksiyasiga meni Valensiya ilhomlantirgan. 2022-yilda dengiz mavzusiga bag'ishlangan tadbirda taomlar dasturxonga keyin tashlab yuborilishi kerak bo'lgan chig'anoqlarda tortildi. Tabiatga e'tiborli kishi sifatida men bunday yaxshi narsalarning behuda ketishiga yo'l qo'yolmasdim. Ularni o'zim bilan O'zbekistonga olib keldim. Shuningdek, ta'tilda plyajdagi qutqaruv chambaragining dekorativ ko'k langar bilan kombinatsiyasi yoqib qoldi — shu tarzda langar tasviri tushirilgan adras paydo bo'ldi. Uni men chizgan rasmga ko'ra Marg'ilon ustalari to'qishdi. Kolleksiya shu qadar mashhur bo'ldiki, hatto bir yil o'tgach ham bu naqsh tushirilgan buyumlarni so'rashmoqda.

Langar bizning o'ziga xos ramzimiz u Azukar Moreno'ning tashrif qog'oziga aylandi. Barqarorlikni aks ettiradi, oyog'ida mahkam turgan va ko'plab imkoniyatlarga ega ayolni ifodalaydi.

Hozirgi paytda Lissabon ilhomlantirgan kolleksiyani tayyorlayapmiz. Bu g'oya men maydonda turib, to'g'ridan-to'g'ri ko'chada yosh yigitlarning qo'shiq aytib, raqsga tushishini kuzatganimda paydo bo'lgan. Lotin Amerikasi ruhidagi tropik kolleksiya bayram muhitini yetkazish uchun yaratilgan.

Aytgancha, yaqinda Sevilyada bo'lgan mijozimiz o'z atrofida mening g'oyalarimni ko'rganini va kolleksiyalarim nima haqida ekanligini tushunib yetganligini aytdi. Ijodim orqali sevimli joylarimga bog'liq his-tuyg'ularni yetkaza olganimdan faxrlanaman.

— При создании коллекций вы используете винтажные ткани и аксессуары. Где их находите?

— Я всегда использовала винтажные ткани, но по мере популярности этого направления мне становилось скучно, так как заметила, что меня стали копировать. По сути, любые люди с такими тканями могли повторить идеи, в которые я вкладывала своё время, знания и труд. Сейчас мне интереснее создавать коллекции из тканей с авторскими узорами, разработанными мною лично. Для этого бренд сотрудничает с мастерами-ткачами из Маргилана: мы покупаем станки и обучаем людей.

Чтобы избежать копирования, даже если я выкупаю не весь объём тканей по моим рисункам, на них наносится логотип, и сразу понятно, чья это работа. Бывали случаи, когда меня обвиняли в плагиате моих же собственных работ. В последней коллекции, показанной на Visa Fashion Week Tashkent 2024, особое внимание уделялось логотипу: название Azukar Moreno крупно выполнено на ткани в технике икат, что стало частью узора. Весной мы выпустили палантины с названием бренда – это происходит впервые в истории иката.

Что касается винтажа, я люблю приобретать старинную фурнитуру в разных странах. У меня есть красивые кружева из России, Украины, Беларуси, Румынии и Валенсии. Со стамбульского блошиного рынка я привезла монеты и украшения, старинные перламутровые пуговицы. Чаще всего покупаю в Париже: гобелен, кружева, а в прошлом году приобрела даже интересную мешковину. У коллекционеров из Коканда нахожу образцы старинной вышивки и фурнитуру. Иногда хожу на ташкентский Янгиабад, но, к сожалению, там уже практически ничего не осталось.

– Вы часто говорите в своих интервью, что у вас экологичный подход к бизнесу. Даже в профиле инстаграма написано, что мода и экология могут жить в гармонии, и все в наших руках и знаниях. В чем конкретно это проявляется?

– По статистике, текстильная отрасль сейчас занимает одно из первых мест по загрязнению атмосферы. Наш экологичный подход заключается, во-первых, в безотходное производство, а во-вторых, – использовании натуральных тканей. Но не все натуральные ткани экологичны для планеты и человечества. Мы стараемся использовать шелковые нити и хлопок, выращенные в небольших объемах без пестицидов. Полотна ткутся вручную, что позволяет избежать такого количества выбросов в атмосферу, как при промышленном производстве.

В понятие «устойчивой моды» мы вкладываем также сохранение традиций и культуры Узбекистана, уважение к труду наших мастериц, которые многое делают вручную.

— Kolleksiyalarni yaratishda vintaj mato va aksessuarlardan foydalanasiz. Ularni qayerdan topasiz?

– Men har doim vintaj matolardan foydalanganman. Ammo bu yo‘nalish ommalashgani sayin undan zerika boshladim, chunki mendan nusxa ola boshlashganini payqadim. Aslida, bunday matolarga ega bo‘lgan har qanday kishi vaqtim, bilimim va mehnatimni sarflagan g‘oyalarimni takrorlashi mumkin edi. Hozir menga kolleksiyalarimni mualliflik naqshlarim tushirilgan matolardan yaratish qiziqroq. Buning uchun brend Marg‘ilon to‘quvchilari bilan hamkorlik qilmoqda: dastgohlar sotib olayapmiz va odamlarni o‘qitayapmiz.

Chizmalarim asosida tayyorlangan matolarning butun hajmini sotib olmasam ham, nusxa ko‘chirishlarining oldini olish maqsadida ularga mening logotipim tushiriladi va bu kimning ishi ekani darhol aniq bo‘ladi. Meni o‘z ishlarimni plagiat qilganlikda ayblashgan holatlar bo‘lgan. Visa Fashion Week Tashkent 2024 ko‘rgazmasida namoyish etilgan so‘nggi kolleksiya logotipiga alohida e’tibor qaratildi: Azukar Moreno nomi adras texnikasi bilan matoga katta qilib tushirildi va bu naqshning bir qismiga aylandi. Bahorda brend nomi bilan palantinlarni chiqardik – bu adras tarixida birinchi marta sodir bo‘ldi.

Vintajga keladigan bo‘lsak, men turli mamlakatlarda qadimgi furnituralarni sotib olishni yaxshi ko‘raman. Menda Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Ruminiya va Valensiyada tayyorlangan chiroyli to‘rlar bor. Istanbul bit bozoridan tangalar va zeb-ziynat buyumlari, qadimiy yaltiroq tugmalarni olib keldim. Ko‘pincha Parijda gobelenlar va to‘rlar sotib olaman, o‘tgan yili hatto qop-qanor tikiladigan mato olib keldim. Qo‘qonlik kolleksionerlarda qadimgi kashta va furnituralarning nusxalarini topaman. Ba’zan Toshkentdagi Yangiobod bozoriga boraman, lekin afsuski, u yerda deyarli hech narsa qolmadi.

— Ko‘pincha intervyularingizda biznesga ekologik yondashuvingiz haqida aytasiz. Hatto Instagram sahifangizda ham moda va ekologiya uyg‘unlikda yashashi mumkinligi, hammasi biznesning qo‘limizda va bilimimizda ekani aytilgan. Bu borada nima ishlar qilayapsiz?

– Statistikaga ko‘ra, hozirgi paytda to‘qimachilik atmosferani ifloslantirish bo‘yicha dastlabki o‘rinlardan birini egallab turibdi. Bizning ekologik yondashuvimiz, birinchi navbatda, chiqindilarsiz ishlab chiqarishdan iborat. Ikkinchidan, biz tabiiy matolardan foydalanamiz. Lekin, tabiiy matolarning hammasi ham sayyoramiz va insoniyat uchun ekologik hisoblanmaydi. Biz kichik hajmda pestitsidlarsiz yetishtirilgan ipak ipi va paxtadan foydalanishga harakat qilayapmiz. Matolarimiz qo‘lda to‘qiladi, atmosferaga sanoatdagi ishlab chiqarish kabi chiqindilarni chiqarmaydi.

Biz «barqaror moda» tushunchasiga O‘zbekiston an’analari va madaniyatini asrab-avaylash, ko‘p ishlarni qo‘lda bajarayotgan hunarmandlarimiz mehnatini hurmat qilishni ham kiritishga harakat qilayapmiz.

– Расскажите про фотосессию на Аральском море. Почему именно там и какой в ней заложен смысл?

– Фотосессия на Аральском море для меня особенная. Она наглядно показала, как человечество вредит планете. Высыхание Аральского моря – трагедия для всего мира: там такие сильные ветра, что ядовитую пыль находят даже в Норвегии. Но, несмотря на все это, природа остаётся вдохновляющей.

Это была самая красивая и экстремальная фотосессия в моём опыте. Там, где мы снимали, нельзя было находиться больше часа из-за радиации и сильного штормового ветра. Мы с командой несколько раз терялись, потом из-за разрыва автомобильной шины около шести часов простояли при 60-градусной жаре, а вечером замерзли и заблудились будучи без воды. Это как раз был мой день рождения, и он стал самым запоминающимся!

– Нас сейчас читают на борту авиакомпании Centrum Air. Поделитесь, пожалуйста, своим опытом: что вы делаете во время перелётов?

– Раньше я смотрела фильмы, которые не успевала посмотреть, чистила телефон, пересматривала фотографии, даже шила. Однажды я летела в Малайзию со своей коллекцией и дошивала её вручную в самолёте. В последнее время хочу просто лететь, расслабившись, даже без телефона.

– Вы любите путешествовать налегке, с одной сумкой, или обычно у вас много багажа?

– Я очень люблю летать налегке, но так случалось только дважды в моей жизни – например, последний раз я путешествовала в Мадрид с маленьким чемоданчиком. Особенно понравилось то, что не нужно было ждать выгрузку багажа в аэропорту, однако обратно я уже вернулась с купленным на шопинге чемоданом. Обычно беру с собой много вещей из своих коллекций, потому что хочу все сфотографировать в красивых локациях и показать, как это выглядит на фоне архитектуры и в реальной жизни.

– Что вы рекомендуете посмотреть в Ташкенте тем, кто здесь впервые?

– Рекомендую всем посетить этнопарк «Навруз». Здесь можно насладиться красивой архитектурой, увидеть старинные домики и ощутить атмосферу прошлого. Например, дом, в котором расположен наш шоурум, мы реконструировали под себя, но с сохранением духа старины. Не забудьте также посетить другие городские парки и базары, обязательно попробуйте блюда национальной кухни. Многие мои друзья, считая их слишком жирными, меняют свое мнение, когда отведают, и всегда уезжают довольные.

— Orol dengizidagi fotosessiya haqida so`zlab bersangiz. Bu qachon amalga oshirildi, nega aynan u yerda va bunda qanday ma'no bor?

— Orol dengizidagi fotosessiya men uchun o'zgacha ahamiyatga ega. U insoniyat sayyoramizga qanday zarar yetkazayotganini yaqqol ko'rsatib berdi. Orol dengizining qurishi — butun dunyoning fojiasi: u yerdagi shamollar shunchalik kuchliki, uning zaharli changlari hatto Norvegiyada ham topilmoqda. Shunga qaramay, tabiat bizga shafqat qilmoqda. Orol dengizidagi fotosessiya tajribamdagi eng chiroylisi va ekstremali bo'ldi. Radiatsiya va kuchli bo'ronli shamol tufayli biz suratga olayotgan joyda bir soatdan ortiq qolish mumkin emas edi. Jamoa bilan bir necha bor adashib qoldik, keyin avtomobil shinasi yorilishi oqibatida taxminan olti soat davomida 60 daraja jaziramada qolib ketdik. Kechqurun esa sovqotib, suvimiz tugagan holda adashib qoldik. O'sha kun tug'ilgan kunim edi va u eng esda qolarlisi bo'ldi!

— Bizni hozir Centrum Air bortida o`qishayapti. Tajribangiz bilan bo`lishsangiz: parvozlar paytida nima bilan mashg`ul bo`lasiz?

— Ilgari ko'rishga ulgurmagan filmlarni tomosha qilardim, telefonimni keraksiz ma`lumotlardan tozalardim, fotosuratlarni qayta ko'rib chiqardim, hatto tikish bilan ham shug`ullanardim. Bir safar kolleksiyam bilan Malayziyaga parvoz qildim va hatto samolyotda uni qo'lda tikib bitirdim. Ammo, so'nggi paytlarda xotirjamlikda dam olib, hatto telefonsiz parvoz qilishni istayman.

— Oz yuk, bitta sumka bilan sayohat qilishni yoqtirasizmi yoki odatda bagajingiz ko`p bo`ladimi?

— Oz yuk bilan uchishni juda yoqtiraman, lekin hayotimda faqat ikki marta shunday bo'lgan. Oxirgi marta shu tarzda kichik chamadon bilan Madridga sayohat qilganman. Ayniqsa, menga aeroportda bagajning tushirilishini kutishga hojat yo'qligi yoqdi. Ammo qaytishda shoppingdan so'ng sotib olingan chamadon bilan keldim. Odatda, o'zim bilan kolleksiyalarimdagi ko'p narsalarni olib ketaman, chunki ularni chiroyli joylarda suratga olishni, arxitektura foni va haqiqiy hayotda qanday ko'rinishini namoyish etishni xohlayman.

— Toshkentga birinchi marta kelganlarga qayerlarga tashrif buyurishni tavsiya etasiz?

— Toshkentda barchaga «Navro'z» etnoparkiga tashrif buyurishni maslahat beraman. Bu yerda chiroyli arxitektura go'zalligidan bahramand bo'lishingiz, qadimiy uychalarni ko'rib, o'tmish muhitini his qilishingiz mumkin. Masalan, bizning shourum joylashgan uyni o'zimizga moslab, ammo, qadimiy ruhini saqlab qolgan holda rekonstruksiya qilganmiz. Shuningdek, shaharning boshqa bog` va bozorlariga ham tashrif buyurishni unutmang, albatta milliy taomlarni tatib ko'ring. Mahalliy taomlarni juda yog'li, deb hisoblagan do'stlarimning aksariyatida ularni tatib ko'rgach fikrlari o'zgargan va har doim mamnun bo'lib ketishgan.

Pepsi: от аптечного эликсира к мировому бренду

Pepsi: dorixona eliksiridan jahon miqyosidagi brendgacha

Сегодня Pepsi – часть нашей повседневной жизни. Однако это – не просто напиток, а целая история, полная взлётов, креативных маркетинговых ходов и оригинальных рекламных кампаний.

Bugungi kunda, Pepsi kundalik hayotimizning bir qismiga aylanishga ulgurdi. Ammo uning tarixi qanday boshlanganini bilasizmi? Axir, bu shunchaki ichimlik emas, balki yuksalish, kreativ marketing harakatlari va original reklama kampaniyalarining butun boshli bir hikoyasi.

Всё началось в 1898 году в маленьком городке Нью-Берн, штат Северная Каролина, где фармацевт Калеб Брэдхем, смешав ваниль, сахар и орехи кола, создал сироп и разбавил его газированной водой. Этот напиток, первоначально известный как Brad's Drink («Напиток Брэда»), предназначался для улучшения пищеварения и повышения настроения.

Но на этом Брэдхем не остановился. Он поменял название своего продукта на Pepsi-Cola, подчеркивая наличие в нем пепсина (фермента для пищеварения) и орехов кола, зарегистрировал в 1903 году торговую марку и начал продавать напиток в аптеках и магазинах Северной Каролины. К 1910 году он уже был на прилавках в 24 штатах Америки.

Популяризация бренда привела к появлению фирменной маркетинговой тактики: компания начала приглашать знаменитостей для рекламы. Первым рекламным лицом Pepsi-Cola в 1913 году становится известный автогонщик Барни Олдфилд, который описывает Pepsi как «дерзкий, освежающий и бодрящий напиток, подходящий для употребления перед гонкой». За всю историю компании её рекламными лицами становились такие звезды, как Майкл Джексон, Тина Тёрнер, Глория Эстефан, Лайонел Ричи, Бейонсе, Бритни Спирс, Пинк, Энрике Иглесиас, Дэвид Бэкхем, София Вергара, Лионель Месси, Тьерри Анри и многие другие.

Сегодня корпорация PepsiCo – это не только напитки, но и разнообразные закуски, продукты питания и многое другое. Компания продолжает внедрять инновации, разрабатывать новые продукты и активно заботиться об устойчивом развитии, работая над сокращением использования пластика и улучшением процессов переработки.

Pepsi в Узбекистане

История компании в Узбекистане началась в 2011 году, когда СП ООО International Beverages Tashkent (IBT) начало свою деятельность на базе отечественного производителя Sibur. Сегодня IBT является одним из самых успешных боттлеров компании PepsiCo в Центральной Азии, производящим продукцию под такими торговыми марками, как Pepsi, Lipton, Adrenaline Rush, Mountain Dew, Mirinda и 7UP. Компания не только обеспечивает местный рынок высококачественной продукцией, но и участвует в развитии экономики региона, создавая рабочие места, выступая организатором и спонсором масштабных музыкальных и спортивных мероприятий.

Pepsi прошла впечатляющий путь от скромного лекарственного напитка до мирового гиганта, и эта история продолжается, каждый день вдохновляя миллионы людей по всему миру.

Hammasi 1898-yilda Shimoliy Karolina shtatining Nyu-Bern shahrida dori tayyorlovchi Kaleb Bredxem vanil, shakar va kola yong'og'idan hosil qilingan siropni gazlangan suv bilan aralashtirganda boshlandi. Dastlab «Brad's Drink» («Bredning ichimligi») nomi bilan tanilgan bu ichimlik ovqat hazm qilish va kayfiyatni ko'tarish uchun mo'ljallangan edi.

Ammo, Bredxem bu bilan cheklanmadi. U mahsuloti tarkibida pepsin (ovqat hazm qilish fermenti) va kola yong'og'i mavjudligini ta'kidlab, uning nomini Pepsi-Cola, deb o'zgartirdi. 1903-yilda savdo belgisini ro'yxatdan o'tkazdi va ichimlikni Shimoliy Karolina dorixonalari hamda do'konlarida sotishni boshladi. 1910-yilga kelib, ichimlik Amerikaning 24 shtati peshtaxtalariga chiqib bo'lgan edi.

Brendni ommalashtirish orqasidan brend marketing taktikasi paydo bo'ldi: kompaniya reklama uchun taniqli kishilarni taklif qila boshladi. 1913-yilda taniqli poygachi Barni Oldfild Pepsi-Colaning birinchi reklama yuzi bo'ldi, u Pepsi «poyga oldidan iste'mol qilish uchun munosib jur'at va dalda beruvchi, tetiklantiruvchi ichimlik» deb ta'rifladi. Kompaniya tarixi davomida Maykl Jekson, Tina Tyorner, Gloriya Estefan, Layonel Richi, Beyonce, Britni Spirs, Pink, Enrike Iglesias, Devid Bekxem, Sofiya Vergara, Lionel Messi, Tyerri Anri va boshqa ko'plab yulduzlar uning reklama yuzi bo'ldi.

Bugungi kunda, PepsiCo korporatsiyasi – nafaqat ichimliklarni, balki turli xil gazaklarni, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni ichlab chiqaradi. Kompaniya innovatsiyalar joriy qilishni davom ettirib, yangi mahsulotlar ishlab chiqmoqda va plastikdan foydalanishni kamaytirish hamda qayta ishlash jarayonlarini yaxshilash ustida ish olib borish orqali barqaror rivojlanishga faol e'tibor qaratmoqda.

Pepsi O'zbekistonda

Kompaniyaning O'zbekistondagi tarixi 2011-yilda «International Beverages Tashkent» MCHJ QK (IBT) o'z faoliyatini «Sibur» mahalliy ishlab chiqaruvchi negizida tashkil qilgan paytdan boshlangan. Bugungi kunda, IBT PepsiCo kompaniyasining Markaziy Osiyoda Pepsi, Lipton, Adrenaline Rush, Mountain Dew, Mirinda va 7up kabi tovar belgilari ostida mahsulot ishlab chiqaradigan eng muvaffaqiyatli botlerlaridan biri hisoblanadi. Kompaniya mahalliy bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlabgina qolmay, ish o'rinlari yaratish, keng ko'lamli musiqa va sport tadbirlarining tashkilotchisi hamda homiysi sifatida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda ishtirok etmoqda.

Pepsi oddiy dorivor ichimlikdan to dunyo miqyosidagi ichimlik bo'lgunicha, taassurotga boy yo'lni bosib o'tdi. Bu tarixiy hikoya har kuni butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarni ilhomlantirib, davom etib kelmoqda

ЛОЛА:

«Полёт — мой источник вдохновения»

Lola: «Parvoz — mening ilhom manbaim»

О ПУТЕШЕСТВИЯХ

Сохранять баланс в жизни мне помогают дети, любимый супруг, семья, в которой я выросла – братья и сестры, мама. На мой взгляд, это самое ценное и дорогое, что у нас есть. Ничто не может заменить живое общение с теми, кто тебя ценит и любит. Я считаю, что это лучший отдых, по крайней мере для меня. Когда не работаю, отдыхаю в кругу близких, наполняюсь силами и энергией, вхожу в своё ресурсное состояние, чтобы дальше творить.

Для меня также очень важно оставаться наедине с собой, чтобы слышать себя. В моем творчестве, как правило, отражаются мои мысли, состояния и даже определенные периоды жизни. Мне нужно время для уединения: люблю выезжать на природу, слушать тишину, читать книги... Это заземляет меня, успокаивает и придает новые силы для дальнейшей деятельности.

Стараюсь часто и разнообразно путешествовать с родными и близкими – это самые веселые поездки. Как только появляется свободное время, сразу стараюсь лететь отдыхать. Меня, как творческого человека, это наполняет вдохновением, и многие идеи и песни были придуманы и написаны в небе. Путешествие – это про развитие и новизну: новый опыт, новые страны, обычаи, культура и люди. Это всегда вдохновляет. Поэтому я очень люблю путешествовать и советую всем не жалеть ни времени, ни средств на поездки, ведь эти воспоминания остаются с нами навсегда.

Когда человек путешествует, он никогда не возвращается прежним, и это касается не только взрослых. Я заметила, что мои дети прогрессируют в путешествиях со скоростью света. Они слышат новые языки, узнают новых людей и находятся в состоянии постоянных открытий. Мы начинаем быстрее говорить, ползать, ходить – все эти этапы у моих малышей проходили во время поездок. Рекомендую матерям отбросить все страхи и брать с собой детей, открывая им мир.

SAYOHATLAR HAQIDA

Hayotda muvozanatni saqlashimda menga farzandlarim, sevimli turmush o‘rtog‘im, tug‘ilib o‘sgan oilam — aka-uka va opa-singillarim, onam yordam berishadi. Menimcha, bu biz ega bo‘lgan eng qimmatli va qadrli narsa. Bizni qadrlaydigan va sevadiganlar bilan bo‘ladigan jonli muloqot o‘rnini hech bir narsa bosa olmaydi. O‘zim uchun buni hech bo‘lmaganda eng yaxshi dam olish, deb hisoblayman. Ishlamagan paytlarimda yaqinlarim davrasida dam olib, kuch va energiyaga to‘yinaman, ijod qilishda davom etish uchun resurs holatimga kiraman.

Shuningdek, yolg‘iz qolib o‘zimni tinglash ham men uchun juda muhim. Odatda, ijodimda fikrlarim, holatlarim va hatto hayotimning muayyan davrlari aks etadi. Yolg‘iz qolishim uchun vaqt kerak: tabiat qo‘yniga borishni, sukunatni tinglashni, kitob o‘qishni yoqtiraman... Bu meni takabburlikdan qaytaradi, tinchlantiradi va keyingi faoliyatim uchun yangidan-yangi kuch beradi.

Tig‘iz ish jadvalimda paydo bo‘lgan har qanday imkoniyatdan foydalanib dam olaman. Oilam va yaqinlarim bilan turli xil sayohatlarga chiqishga harakat qilaman — bu eng maroqli safarlar bo‘ladi. Bo‘sh vaqt paydo bo‘ldi deguncha, darhol dam olish uchun parvoz qilishga harakat qilaman. Bu meni ijodkor shaxs sifatida ilhom bilan to‘yintiradi. Ko‘plab g‘oya va qo‘shiqlarim osmonda yaratilgan va yozilgan. Sayohat bu – rivojlanish va yangilik: yangi tajriba, yangi mamlakatlar, urf-odatlar, madaniyat va insonlar. Bu har doim ilhomlantiradi. Shu sababli, sayohat qilishni juda yaxshi ko‘raman va har bir kishiga sayohatdan vaqt va pulni ayamaslikni maslahat beraman, chunki bu xotiralar biz bilan abadiy qoladi.

Kishi sayohatdan hech qachon ilgarigidek bo‘lib qaytmaydi, bu faqat kattalarga tegishli emas. Farzandlarim sayohatlarda yorug‘lik tezligida rivojlanayotganini payqadim. Ular yangi tillarni eshitadi, yangi odamlarni uchratadi va doimo yangiliklar olamida bo‘ladi. Ertaroq gapira boshlaymiz, emaklaymiz, yuramiz — farzandlarim bilan bog‘liq bu bosqichlarning barchasi sayohatlar paytida sodir bo‘lgan. Onalarga barcha qo‘rquvlaridan xalos bo‘lib, o‘zlari bilan farzandlarini ham olib, ularga dunyoni ko‘rsatishlarini maslahat beraman.

Когда человек путешествует, он никогда не возвращается прежним, и это касается не только взрослых. Я заметила, что мои дети прогрессируют в путешествиях со скоростью света.

Kishi sayohatdan hech qachon ilgarigidek bo‘lib qaytmaydi, bu faqat kattalarga tegishli emas. Farzandlarim sayohatlarda yorug‘lik tezligida rivojlanayotganini payqadim.

О СОТРУДНИЧЕСТВЕ С CENTRUM AIR

Centrum Air для меня в первую очередь – это про комфорт и безопасность, про доверие не только своей, но и жизни близких. Это те ценности, которые я нахожу в данной компании. С Centrum Air я ощущаю себя в состоянии полёта, движения, развития и всегда ощущаю себя будто на взлетной полосе – готовой к новым свершениям.

О ПОЕЗДКЕ В ГРУЗИЮ

В июне Лола путешествовала с нами в Грузию, организовав тур с помощью Centrum Holidays. Поездка была насыщенной: в течение пяти дней мы не только гуляли по историческим местам с невероятными видами, но и посещали экскурсии, которые Centrum Holidays может организовать и для вас. Мы поговорили о том, что Лола всегда берет с собой в поездки, какие у нее есть ритуалы и как она выбирает сувениры и подарки.

Я не летаю без наушников и нового фильма, загруженного на ноутбук. Также беру с собой отдельный чемодан с образами для рилсов и фотосессий, но он практически всегда остается закрытым – во время отдыха хочется просто наслаждаться происходящим и не думать о съемках.

